

**TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.04/30.12.2019.Tib.29.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TIBBIYOT XODIMLARINING KASBIY MALAKASINI
RIVOJLANTIRISH MARKAZI**

RADJABOVA ZULOLA ABDUXAKIMOVNA

**HOMILADOR AYOLLAR TROMBOTIK
MIKROANGIOPATIYALARINING YASHIRIN
PREDIKTORLARI: KLINIK-MORFOLOGIK JIHATLARI**

14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya

**TIBBIYOT FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasining avtoreferat mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук(DSC)

Contents of dissertation abstract of doctor of science (DSC)

Radjabova Zulola Abduxakimovna

Homilador ayollar trombotik mikroangiopatiyalarining
yashirin prediktorlari: klinik-morfologik jihatlari 3

Раджабова Зулола Абдухакимовна

Латентные предикторы тромбомикроангиопатий
беременных: клинико-морфологические аспекты 35

Radjabova Zulola Abduxakimovna

Latent predictors of thrombomicroangiopathy
in pregnant women: clinical and morphological aspects 69

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 78

**TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.04/30.12.2019.Tib.29.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TIBBIYOT XODIMLARINING KASBIY MALAKASINI
RIVOJLANTIRISH MARKAZI**

RADJABOVA ZULOLA ABDUXAKIMOVNA

**HOMILADOR AYOLLAR TROMBOTIK
MIKROANGIOPATIYALARINING YASHIRIN
PREDIKTORLARI: KLINIK-MORFOLOGIK JIATLARI**

14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya

**TIBBIYOT FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Olin ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi xuzuridagi Olin attestatsiya komissiyasida № B2022.2.DSc/Tib681 rakam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazida bajarilgan

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb* saxifasida (www.tashmeduni.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan

Ilmiy maslahatchi:

Karimova Feruza Djavdatovna
tibbiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Kattaxodjayeva Maxmuda Xamdamovna
tibbiyot fanlari doktori, professor

Zakirova Nodira Islamovna
tibbiyot fanlari doktori, professor

Nishanov Daniyar Anarbayevich
tibbiyot fanlari doktori, professor

Etakchi tashkilot:

N. I. Pirogov nomidagi Rossiya milliy tadqiqot tibbiyot universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019.Tib.29.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "___" _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100140, Toshkent shahri. Yunusobod tumani, Bog‘ishamol ko‘chasi 223-uy. Tel.: (+998-78) 150-78-25, (998-71) 214-83-11, faks: (+998-78) 150-78-28, e-mail: info@tma.uz, tta@exat.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat tibbiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100140, Toshkent shahri. Yunusobod tumani, Bog‘ishamol ko‘chasi 223-uy. Tel./faks: (+99871) 262-33-14).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil “___” _____dagi ___-raqamli reyestr bayonnomasi).

A.V. Alimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
tibbiyot fanlari doktori, professor

X.A. Akramova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, tibbiyot fanlari doktori, dotsent

Q.N.Xaitov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, tibbiyot fanlari
doktori, professor

KIRISH (fan doktori dissertatsiyasi (DSs) annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Dunyoda so'nggi yillarda akusherlik fani va amaliyotidagi erishilgan yutuqlarga qaramay, kritik holatlar bilan bog'liq bo'lgan onalik kasallanishi va o'limi global miqyosdagi dolzarb tibbiy-ijtimoiy muammo bo'lib qolmoqda. Jhon Sog'liqni Saqlash tashkiloti (JSST) ekspertlarining bahosiga ko'ra ko'ra, «...dunyodagi har o'n nafar homilador ayolning deyarli bittasida (8-10%) preeklampsiya rivojlanadi. Preeklampsianing og'ir shakllari 10–20% holatlarda HELLP-sindromiga transformatsiyalanadi va endoteliyning massiv shikastlanishi bilan tavsiflanadigan bu hayot uchun xavfli holat bo'lib akusherlikda poliorgan yetishmovchiligi va letal oqibatlarning rivojlanishiga olib keluvchi asosiy sabab hisoblanadi. Bu kasallik onalar o'limining (yiliga taxminan 46 000) va perinatal o'limning (yiliga taxminan 500 000) asosiy sabablaridan biridir. Preeklampsiya tufayli yuzaga keladigan o'lim holatlari, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda ko'p uchraydi: Osiyo va Afrikada bu ko'rsatkich 10%, Lotin Amerikasida esa 25% yetadi...»¹. Bu holat onalik va bolalikni himoya qilish borasidagi global nomutanosiblikdan dalolat beradi.

Jahonda perinatal natijalarni optimallashtirish, trombotik mikroangiopatiya (TMA)da asoratlar xavfini kamaytirish va u bilan bog'liq onalar va bolalar o'limini oldini olish usullarini o'rganish bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Homiladorlarda og'ir preeklampsiya (OPE), HELLP-sindromi kabi og'ir akusherlik asoratlari fonida, shuningdek, xususan antifosfolipid sindromi fonida javoban namoyon bo'ladigan trombotik mikroangiopatiyaning shakllari alohida klinik ahamiyatga va ilmiy-tadqiqot qiziqishiga ega. Aynan ushbu TMA learning genezi ularning patogenetik kaskadlari, klinik fenotiplari va terapevtik nishonlarining o'ziga xosligini belgilaydi. Diagnostik murakkablikgi shundaki, TMA ning klinik-laborator namoyon bo'lishlari ko'pincha asosiy trigger-kasallik simptomatikasi bilan qoplanadi, bu esa ularni o'z vaqtida verifikatsiya qilishni va patogenetik yo'naltirilgan terapiyani amalga oshirishni sezilarli darajada qiyinlashtiradi. Endotelial disfunksiya, koagulyatsion gemostaz va fibrinoliz buzilishlari, shuningdek, immunopatologik o'zgarishlarni o'z ichiga olgan TMA patogenezining polietiologikligi va ko'p komponentliligi ushbu muammoni kompleks o'rganish zaruratini taqozo etadi.

Mamlakatimizda ona, bola va homila salomatligini muhofaza qilish tizimini mustahkamlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmokda. Tibbiy yordam sifatini oshirish, diagnostika va davolashning zamonaviy texnologiyalarini joriy etish. «...xavf omillari aniklangan ayollarni tibbiy tekshiruvdan o'tkazish va ularni davolash, xomilador ayollarni skrining tekshiruvlaridan o'tkazishda ixtisoslashtirilgan va yukori texnologiyali diagnostika va davolash amaliyotlari joriy etilmoqda...»² ga qaratilgan muhim vazifalar belgilangan. Mamlakatimiz perinatal tibbiyotining ustuvor vazifalaridan biri bo'lgan onalar va bollalar o'limini qisqartirish bo'yicha sa'yi harakatlar muhim o'rinn tutadi. Shu nuqtayi nazardan,

¹ <https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/pre-eclampsia>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8 sentabrdagi “Ona va bola salomatligini muhofaza kilish, aholi reproduktiv salomatligini mustaxkamlash chora-tadbirlari tugrisida”gi PQ-296-sonli qarori

mazkur tadkikotning maqsadi onalar va bolalar o‘limini kamaytirish, perinatal natijalarni yaxshilash, TMA ni tashxislash va davolashni takomillashtirish bo‘yicha davlat ustuvor yo‘nalishlariga mos keladi.

Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son, 2023-yil 11-sentyabrdagi «O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-158-son, 2023-yil 8-sentyabrdagi PQ-296-sonli «Ona va bola salomatligini muhofaza qilish, aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2022-yil 25-apreldagi PQ-216-sonli «2022-2026-yillarda onalik va bolalikni muhofaza qilishni kuchaytirish to‘g‘risida»gi qarorlari, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlantirishning VI. «Tibbiyot va farmakologiya» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlar sharhi³. Homilador ayollarda trombomikroangiopatiyani tashxislash, davolash va profilaktikasini takomillashtirishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliv o‘quv yurtlarida faol olib borilmoqda, jumladan: Harvard Medical School / Brigham and Women’s Hospital / Johns Hopkins University (AQSH), University of Oxford (Buyuk Britaniya), Karolinska Institutet (Shvetsiya), University of Cambridge (Buyuk Britaniya), University of Toronto / Mount Sinai Hospital (Kanada), INSERM / Université de Paris (Fransiya), V.I. Kulakov nomidagi Akusherlik, ginekologiya va perinatologiya ilmiy markazi, I.M. Sechenov nomidagi Birinchi Moskva davlat tibbiyot universiteti, N.I. Pirogov nomidagi Rossiya milliy tadqiqot tibbiyot universiteti, shuningdek, Toshkent, Samarqand va Buxoro tibbiyot universitetlari.

TMAning turli jihatlarini o‘rganishga qaratilgan muhim ilmiy natijalar qo‘lga kiritilgan, Harvard Medical School (AQSH) Massachusetts General Hospital va Brigham and Women’s Hospitalda HELLP-sindromi, preeklampsiya va TMA rivojlanishining molekulyar-genetik mexanizmlari bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. TMA bilan kasallangan Homilador ayol holatini kuzatish bilan birga oldini olish, tug‘ruq muddatlarini maqbullashtirish va neonatal asoratlar ehtimolini pasaytirishi isbotlangan (University of Cambridge, Buyuk Britaniya). TMAda homiladorlikni olib borishga individual yondashuv yangi tug‘ilgan chaqaloklarda nevrologik va somatik natijalarni yaxshilashi aniqlangan (University College London, Buyuk Britaniya).

TMAda xomilaning ona kornidagi rivojlanishini yaxshilash uchun kindik venasiga o‘sish omillarini yuborish imkoniyatlari topilgan (Université de Paris,

³ Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharxi: www.nichd.nih.gov, www.ox.ac.uk, www.erasmusmc.nl, www.charite.de, www.ucl.ac.uk, www.rcsi.com, www.auckland.ac.nz, www.ub.edu, www.kuleuven.be, www.uniklinikum-jena.de, www.ncagip.ru, www.bsmu.by, www.kaznmu.edu.kz, www.tma.uz, www.sammi.uz va boshqa manbalar asosida amalga oshirildi.

Fransiya). Preeklampsiyada homilaning biofizik ko'rsatkichlarini kat'iy nazorat qilish tashxis aniqligini oshirishi va keraksiz muddatidan oldingi tug'ruqlar sonini kamaytirishi aniklangan (University of Toronto, Kanada). Onada kechayotgan TMA patogenezida asosiy o'rinni autoimmun jarayonlar egallashi aniklangan, bu esa ushbu asoratni erta prognozlar imkoniyatlarini ochib bergan (Mount Sinai Hospital, Kanada)). Medikamentoz davolash usullarini yaratish bo'yicha taddiqotlar olib borilmokda, xususan, preeklampsya va xomila o'shining cheklanishini oldini olishda aspirinning o'rni tasdiklangan (Karolinska Institutet, Shvetsiya).

Rossiyada mitochondrial disfunksiyalar o'rganilgan va TMAda homiladorlik natijalarini prognozlash uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan oksidlovchi stressning biokimyoviy markerlari aniklangan (V.I.Kulakov nomidagi Akusherlik, ginekologiya va perinatologiya markazi). Qirg'izistonda TMAda yo'ldosh yetishmovchiligining asosiy mexanizmlari aniklangan va uni korreksiya qilish usullari ishlab chikilmokgan (Qozog'iston milliy tibbiyot universiteti). O'zbekistonda preeklampsya bo'lgan ayollarda onalar o'limi va perinatal natijalar taxlil kilinib, ultratovush monitoringi algo-ritmlari ishlab chiqilgan (Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola sa-lomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, Toshkent tibbiyot akademiyasi). Shuningdek, xomilador ayolning nutritiv holati TMA rivojlanish xavfiga ta'sir kilishi aniklangan, bu esa nutritiv qo'llab-quvvatlashga yangi yonda-shuvlarni ishlab chikish imkonini bergan (Samarkand davlat tibbiyot universiteti).

Jahon miqyosida TMA rivojlanishining molekulyar-genetik va epigenetik mexanizmlari bo'yicha taddiqotlar olib borilmokda. Erta tashxis qo'yish uchun biomarkerlar ishlab chiqilgan, dopplerometriya va ultratovush usullari takomillashtirilgan, xomiladorlikni olib borishning individuallashtirilgan strategiyalari yaratilgan. Nutritiv qo'llab- kuvvatlash va xomila o'sishini yaxshilashning farmakologik usullariga alohida e'tibor karatilmokda. Shuningdek, terapevtik yondashuvlar samaradorligini baholash va perinatal strategiyalarni optimallashtirish uchun xalkaro registrlar shakllantirilmokda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jaxondagi zamonaviy ilmiy ma'lumotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, homilador ayollarning trombotik mikroangiopatiyasi onalar o'limi va noxush perinatal oqibatlarning yetakchi sabablaridan biri bo'lib qolmoqda. (Knoop T. va Gonsalves E.A. 2021y.) Trombotik mikroangiopatiyaning differensial diagnostikasida zamonaviy yo'nalishni rivojlantirmoqdalar. Ular klinik jihatdan o'xshash holatlarni aniq ajratish uchun ko'p faktorli panellardan (trombotsitlar, LDH, kreatinin) foydalanishni taklif qilishadi. Ularning yondashuvi OPE/HELLP dan o'z vaqtida farqlash, adekvat terapiyani tanlash imkonini beradi va molekulyar belgilar hamda "bachadon-yo'ldosh" tizimlariga urg'u beradi. (Zuber J., Fakhouri F. 2020y.) homilador ayollarda trombo mikroangiopatiyani o'rganish bo'yicha pionerlardir. TMA bilan og'rigan homilador ayollarda ekulizumabni qo'llash sxemalarini ishlab chiqdilar.

MDH mamlakatlarida TMA diagnostikasida turli markerlarning rolini o'rganishga qaratilgan taddiqotlar olib borilgan. Masalan, kon tomir endotelial o'sish omili (VEGF) angiogenetik va yo'ldosh kon oqimini boshqarishda asosiy rol o'ynaydi, mikroRNK (mkRNK) esa oksidlovchi stressni epigenetik boshkarishda

ishtirok etadi. Biroq, bugungi kunga kadar TMA ni aniq tashxislash uchun yetarlicha sezgirlik va o‘ziga xoslikka ega bo‘lgan tekshiruvlarni ishlab chiqishning imkonii bo‘lmadi. Ularning klinik axamiyatini tasdiklash, tashxislash chegaralarini standartlashtirish va TMA ni erta aniklashda biokimyoviy markerlardan foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chikish uchun ko‘shimcha tadkikotlar o‘tkazish zarur (Simuxina M.A., Grigoryeva K.N. 2022 y.; Filatov L.B., Bitsadze V.O. 2022 y., Xizroyeva D.X., Sibizova V.I. 2023 y.).

O‘zbekistonda homiladorlikning trombotik asoratlari va ularning prediktorlari muammosi faol ilmiy tadqiqotlar predmeti hisoblanadi. Xususan, professor S.N. Sultonovning ishlari bilan irsiy trombofiliyalarning yo‘ldoshning barvaqt ko‘chishi va reproduktiv yo‘qotishlar kabi og‘ir akusherlik asoratlari genezidagi rolini o‘rganishga salmoqli hissa qo‘shilgan (Sultonov S.N. va hammualliflar, 2017; Sultonov S.N., Xodjimuratova G.A., 2019). Shuningdek, folat sikli genlari polimorfizmning platsentar yetishmovchilik rivojlanishidagi roli ham o‘rganilgan (Yuldasheva Sh.F., Sultonov S.N., 2017). Bizning ilmiy ishimiz ushbu tadqiqotlarni davom ettiradi va chuqurlashtiradi, asosiy e’tiborni ITMAning turli shakllarini differensial diagnostika qilish uchun integral prognostik modelni yaratishga qaratadi. D.Najmutdinova va N. Mavlyanova (2023 y.), M.X.Kattaxodjayeva va D.F.G‘aybullayeva (2023 y.), R.E.Niyazmetov (2021 y.), D.B.Asrankulova, Yeshembetova G.Z. (2024 y.), N.X.Ruziyeva, G.S.Babadjanova va Y.K.Djabbarova (2021y.) kabi olimlar hamda boshqa mutaxassislar. Ushbu olimlarning tadqiqotlarida asosiy e’tibor ikkilamchi trombotik mikroangiopatiyalar bilan bog‘liq xavf omillarini, shuningdek, preeklampsiya, muddatidan oldingi tug‘ruq, platsentar yetishmovchilik, endotelial disfunksiya, HELLP-sindrom, AFS, KAFS, trombofiliya kabi yo‘ldosh patologiyalarni o‘rganishga qaratilgan. Xususan, platsentar yetishmovchilikning molekulyar markerlari ko‘rib chiqilgan, oksidlovchi stressning biokimyoviy ko‘rsatkichlari va homila o‘sishining kechikishi bilan birga keladigan metabolik buzilishlar aniqlangan. Bundan tashqari, trombofiliya bilan kechgan o‘miladorlikda fetoplatsentar tizim xususiyatlarini baxolash, perinatal o‘limni kamaytirish bo‘yicha xalkaro yondashuvlarni ko‘llash, preeklampsiyada endotelial disfunksiyani taxlil kilish va xomila tushishi sindromi bo‘lgan ayollarda autoimmun antitanachalarni o‘rganishni o‘z ichiga olgan. Tadkikotlar turli biomarkerlar va qon oqimining dopplerometrik ko‘rsatkichlaridan foydalangan xolda ikkilamchi trombotik mikroangiopatiyalarda xomiladorlik natijalarini prognozlash usullarini ishlab chikishga xam karatilgan.

Shu bilan birga, ushbu mavzu bo‘yicha nashrlar mavjudligiga karamasdan, mamlakatimizda trombotik mikroangiopatiyalarini o‘rganishga karatilgan kompleks tadqiqotlar deyarli o‘tkazilmagan. Aksariyat tadqiqotlarda fetoplatsentar kompleksi holati, muddatidan oldingi tug‘rukarda perinatal natijalar va kon tomir buzilishlarining mumkin bo‘lgan mexanizmlari kabi ikkilamchi jihatlarga e’tibor karatilgan. Hozirgi kunga kadar ikkilamchi trombotik mikroangiopatiyalarda homiladorlikni olib borishning turli usullari ta’sirini, terapevtik va profilaktik strategiyalarning samaradorligini baholovchi istikbolli tadkikotlar yetarli emas. Bu borada, jumladan, ikkilamchi trombotik mikroangiopatiyalar patogenezini chukurrok o‘rganish, erta tashxislashning ishonchli usullarini ishlab chiqish va

ushbu sindrom oqibatida yuzaga keladigan onalar va perinatal yo‘qotishlar profilaktikasiga samarali yondashish imkonini beradigan ilmiy tadkikotlar aloxida ilmiy va klinik axamiyat kasb etib bormokda.

Dissertatsiya tadqiqoti mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazining «Kasalliklarni tashhislash, davolash va ularni oldini olishning zamonaviy texnologiyalari » (2020-2024-yillar) mavzusidagi ilmiy-tadkikot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi trombotik mikroangiopatiyalarda latent prediktorlarning ahamiyatini o‘rganish orqali homiladorlik asoratlarini diagnostikasi va bashorat qilishni takomillashtirish.

Tadqiqot vazifalari:

homilador ayollar trombotik mikroangiopatiyasining uchta klinik-patogenetik fenotipini (og‘ir preeklampsiya, HELLP-sindromi, katastrofik antifosfolipid sindromi-KAFS) kompleks tahlil asosida ta’riflash va taqdim qilish.

homilador ayollar trombotik mikroangiopatiyasining erta tashxislash va prognozlash uchun eng informativ klinik-laborator markerlarni aniqlash;

trombofiliya (F5 Leiden, F2 Prothrombin, PAI-1), folat sikli (MTHFR, MTR) va renin-angiotenzin tizimi (AGTR1, AGTR2) genlari polimorfizmlarining homilador ayollar trombotik mikroangiopatiysi fenotiplari og‘irlashuvining latent genetik prediktorlari sifatida ularning assotsiatsiyalari va bashorat qilish ahamiyatini asoslash;

genetik profil, yo‘ldoshdagi morfologik shikastlanishlar va klinik-laborator ko‘rinishlar og‘irligi o‘rtasidagi korrelyatsiya darajasini aniqlash va asoslash

homilador ayollarda trombotik mikroangiopatiya xavfi yuqori bo‘lgan bemorlar guruhlarini aniqlash uchun xavflarni tabaqlashtirishning shaxsiylashtirilgan matematik modelini ishlab chiqish;

trombotik mikroangiopatiyalar xavfi yuqori bo‘lgan va og‘ir anamnezga ega ayollarda akusherlik asoratlarini oldini olish maqsadida xavfni tabaqlashtirish va pregravidar tayyorgarlik algoritmini ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida 423 nafar homilador ayyollar olingan bo‘lib, ularni 327 nafarida og‘ir preeklampsiya, 34 nafarida HELLP-sindromi, 12 nafarida KAFS-sindromi kuzatilgan va 50 nafar ayol somatik sog‘lom fiziologik kechayotgan homiladorlik bilan olingan.

Tadqiqot predmeti sifatida homilador ayollar qoni, peshobi va yo‘ldosh materiallari olingan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda umumklinik, instrumental, laborator, ultratovush, molekulyar-genetik, morfologik, immunogistoximik, kompyuter modellashtirish usullari va statistik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

homiladorlarda trombotik mikroangiopatiyalarning rivojlanishida og‘irlashgan anamnezning hal qiluvchi roli isbotlandi, oilaviy trombotik anamnez, somatik va akusherlik anamnezi kabi holatlar HELLP -sindromi, KAFS, og‘ir

preeklampsiya bilan kasallangan bemorlarda yuqori chastotada uchrashi aniqlandi, bu, o‘z navbatida, ushbu anamnestik omillar shunchaki xavf omillari emas, balki kasallikning eng og‘ir (fulminant) shakllariga transformatsiyasining asosiy yashirin prediktorlari ekanligini isbotlangan;

homiladorlar trombotik mikroangiopatiyasining og‘irlashish trayektoriyasini belgilovchi yashirin prediktorlar sifatida aniq genetik markerlarning yetakchi prognostik roli isbotlandi. F5 Leiden (G1691A) mutant gomozigot genotipi tashuvchanligi HELLP -sindromi rivojlanish imkoniyatini 14,8 martaga, MTHFR C677T polimorfizmi esa - 10,1 martaga oshirishi aniqlandi. KAFS-sindromi uchun bir nechta protrombotik mutatsiyalar, xususan F2 Prothrombin G20210A va PAI-1 4G/4Gning kumulyatsiyasi (to‘planishi) xos ekanligi isbotlandi, bu homiladorlarda trombotik mikroangiopatiyaning fulminant shakllari turli xil genetik asosga ega ekanligi isbotlangan;

yashirin xavfni miqdoriy baholash uchun innovatsion multiparametrik vosita - TMA Og‘irlilik Integral Indeksi (TMSI) ishlab chiqildi, metodologik jihatdan asoslandi va validatsiyadan o‘tkazildi, bu 10 ta anamnestik, genetik va laborator prediktorlarni birlashtirgan kompleks TMSI-10 indeksi HELLP-sindromini og‘ir preeklampsiyadan ($AUC=0.806$) va KAFSni og‘ir preeklampsiyadan ($AUC=0.862$) farqlash uchun yuqori prognostik aniqlikka ega ekanligi isbotlandi va tizimli poliorgan shikastlanish darajasini aks ettiruvchi yagona, kuchli omil sifatida TMSI ning yuqori bashorat qilish qobiliyati ($p=0.0047$) isbotlangan;

TMSI-10 indeksi asosida og‘ir preeklampsiyaning fulminant shakllarga transformatsiyasining individual ehtimolini hisoblash imkonini beruvchi, prognostik matematik modellar (binar logistik regressiya asosida) ishlab chiqildi va validatsiya qilindi. TMSI-10 Indeksining bir birlikka oshishi HELLP-sindromi rivojlanish imkoniyatini (OR) 1,22 martaga va KAFS mavjudligi imkoniyatini — 1,30 martaga oshirishi aniqlandi, ushbu formulalarning yaratilishi har bir homiladorni shaxsiylashtirilgan ya’ni individual olib borish taktikasiga o‘tish uchun asos bo‘lgani isbotlangan;

homiladorlar trombotik mikroangiopatiyasi bilan og‘igan bemorlarda F5 Leiden, F2 Prothrombin va PAI-1 4G/4G mutatsiyalarini tashuvchanligi va yo‘ldoshdagi tutqun vorsinkalar tomirlari trombozi darajasi, yo‘ldoshning tayanch vorsinkalari tomirlarining obliteratsion angiopatiyasi hamda infarktlar maydoni o‘rtasida kuchli ishonchli korrelyatsiya aniqlandi, bu genetik nuqsonlarning aniq patologik jarayon orqali amalga oshishini va klinik manzarani belgilashi to‘g‘ridan to‘g‘ri isbotlangan;

olingan matematik model asosida klinik amaliyot uchun bosqichma-bosqich algoritm ishlab chiqildi. ushbu algoritm anamnezni baholash, TMSI indeksini hisoblash va bemorlarni past va yuqori havf guruhlariga stratifikatsiya qilishni o‘z ichiga oladi, bu esa ikkilamchi trombotik mikroangiopatiyaga moyil homiladorlarni olib borishda personallashtirilgan yondashuvni joriy etish uchun ilmiy asos yaratilgani isbotlandi bu esa mazkur usulning xavfsizligi va maqsadga muvofikligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan:

homilador ayollardagi trombotik mikroangiopatiyalar, mikroangiopatiyalarini TMA turli klinik-patogenetik profillarga ega bo‘lgan geterogen holatlar guruhini tashkil etadi, homiladorlarda uning eng ko‘p tarqalgan shakllari og‘ir preeklampsiya (OPE) (87,7%) va HELLP-sindromi (9,1%) fonidagi TMA hisoblanadi, katastrofik antifosfolipid sindromi (KAFS) fonidagi TMA kamroq (3,2%) uchrasa-da, eng noxush oqibatlar bilan tavsiflanadi, ajratilgan klinik fenotiplar anamnestik ma’lumotlarda, laboratoriya ko‘rsatkichlarida va yo‘ldoshning morfologik o‘zgarishlarida o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, bu ularning kechishining yashirin prediktorlarini aniqlash uchun asos bo‘lib xizmat qilishi asoslangan;

TMA rivojlanishi fiziologik homiladorlik guruhiba nisbatan gemostaz tizimi (F5 Leiden, F2 Protrombin), folat sikli (MTHFR C677T) va renin-angiotenzin tizimi (AGTR1) genlarining noqulay polimorf variantlari tashuvchiligining statistik ahamiyatli darajada yuqori chastotasi bilan bog‘liq ($p<0,001$), eng kuchli assotsiatsiya F5 Leiden mutatsiyasi ($OR=14,8$) va MTHFR C677T ($OR=10,1$) bilan HELLP-sindromining rivojlanishi o‘rtasida aniqlandi, ushbu genetik markerlar individual moyillikni va TMAning og‘irlashish trayektoriyasini belgilovchi yashirin determinantlar sifatida namoyon bo‘lishi asoslangan;

ishlab chiqilgan TMA Og‘irlik Darajasining Integral Indeksi (TMSI), standartlashtirilgan Z-baholarga asoslangan bo‘lib, og‘irlashishning yashirin xavfini miqdoriy baholash va TMAning turli shakllarini differensial diagnostika qilish uchun yuqori aniqlikdagi vosita hisoblanadi. TMSI-4- baza indeksi og‘ir akusherlik patologiyasini bashorat qilish uchun a’lo darajadagi aniqlash qobiliyatiga ega ($AUC=1.0$), yashirin genetik va anamnestik omillarni o‘z ichiga olgan kompleks TMSI-10 indeksi HELLP-sindromini og‘ir PEdan ajratish uchun juda yaxshi aniqlikni ($AUC=0.806$) va KAFSni og‘ir PEdan ajratish uchun a’lo darajadagi aniqlikni ($AUC=0.862$) namoyish etdi, bu kasallikning og‘irlashish yashirin vektorini obyektivlashtirishga imkon beradi va shaxsiylashtirilgan taktikaga kalit bo‘lib asoslangan;

yo‘ldoshlarni morfologik tekshirish TMAning har bir shakli uchun o‘ziga xos shikastlanish patternlarini aniqladi: OPE va HELLP-sindromi uchun trombozlar va infarktlar bilan kechadigan ona tomirlari malperfuziyasi belgilari xos; KAFS uchun – terminal vorsinkalarning diffuz obliteratsiyalovchi angiopatiyasi xos, morfologik shikastlanishlar darjasи, klinik-laboratoriya ko‘rinishlarining og‘irligi va bemorlarning yashirin morfogenetik omil sifatida namoyon bo‘luvchi genetik profili o‘rtasida kuchli ishonchli korrelyatsiya aniqlandi ($p<0,01$), yo‘ldoshning adekvat kompensator reaksiyalari yo‘qligi bilan tavsiflanuvchi "adaptatsiya buzilishi" fenomeni HELLP-sindromi va KAFSning fulminant (yashin tezligidagi) kechishining muhim morfologik yashirin prediktori deb asoslangan;

kompleks TMSI-10 indeksiga asoslanib, asoratlar rivojlanishining individual ehtimolligini hisoblash va transformatsiyaning yashirin xavfini miqdoriy baholash imkonini beruvchi, amalda ishlaydigan logistik regressiyaning prognostik modellari ishlab chiqildi va validatsiyadan o‘tkazildi, TMSI-10 indeksining 1 birlikka oshishi HELLP-sindromi rivojlanishi shanslarini 1,22 barobarga (95% CI: 1,130–1,326) va

KAFS mavjudligi shanslarini 1,30 barobarga (95% CI: 1,155–1,467) oshirishi asoslangan;

yashirin xavfni stratifikatsiyalash va TMAning shaxsiylashtirilgan profilaktikasi tizimi ilmiy jihatdan asoslandi va aprobatsiyadan o'tkazildi, yuqori yashirin xavf guruhida preventiv terapiyani (past molekulyar geparinlar, aspirinning kichik dozalari) erta tayinlashni o'z ichiga olgan ishlab chiqilgan algoritmni qo'llash, standart olib borish guruhiga nisbatan TMAning og'ir shakllari chastotasini 30% ga statistik ahamiyatli darajada kamaytirishga ($p<0,05$) va perinatal oqibatlarni yaxshilashga imkon berdi, bu esa proaktiv yondashuvning klinik samaradorligini tasdiqlashga asoslangan.

Tadqiqotning natijalarining ishonchliligi tadqiqotda zamonaviy, nazariy jihatdan asoslangan usullardan foydalanilganligi; o'tkazilgan tadkiqotlarning uslubiy jihatdan to'g'riliqi, yetarli darajada material tanlanganligi, tadkiqotda zamonaviy, o'zaro bir-birini to'ldiruvchi umumiy, maxsus va statistik usullardan foydalanilganligi; shuningdek, olingan natijalarining xalqaro hamda mahalliy tadqiqotlar bilan taqqoslanganligi; xulosa, olingan natijalarining vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiklanganligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati akusherlik asoratlari bo'lmish homiladorlarda uchraydigan trombotik mikroangiopatiylarni rivojlanish mexanizmida genetrik, gemostozeologik, biokimyoviy va autoimmun buzilishlarning patogenetik o'rni yuqoriligi har tomonlama ko'rsatilgan, shu bilan birga, ushbu tasniflarning qo'llanilishi baholanib, ularning afzalliklari ilmiy asos bilan isbotlandi, TMA differensial diagnostikasi uchun obyektiv vosita (TMSI-10 kalkulyatori) taklif etildi, TMSI-10 indeksi shifokorga murakkab klinik vaziyatlarda subyektiv fikrlashdan obyektiv sonli mezonga o'tishga yordam beradi, bu esa klinik oldi bosqichida tashxislash aniqligini oshirishi, ona va homila holatini bashorat qilish, hayot uchun havfli asoratlarni oldini olishga olib keladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati homiladorlik asoratlarni va yoqotishlarni erta tashxislash, bashorat qilish, oldini olish va natijalarini yxshilashga qaratilgan. Klinik amaliyat uchun xavfni stratifikatsiyalashning uch bosqichli algoritmi ishlab chiqilganligi, bu algoritm shifokorlar uchun aniq yo'riqnomasi bo'lib, homiladorlarni pregravidar tayyorgarlik yoki birinchi murojaatdayoq xavf guruhlariga ajratish imkonini bergenligi, bu "kuzatuvchan" taktikadan profilaktik taktikaga o'tish imkonini bergenligi maqsadli profilaktika uchun asos yaratildi. Sog'liqni saqlash tizimi resurslarini optimallashtirish imkoniyati yaratildi. Taklif etilgan TMSI-10 qimmatbaho genetik tahlillar va chuqurlashtirilgan monitoringni barcha homiladorlarga emas, balki aynan yuqori xavf guruhiga kiruvchi kichik kontingentga yo'naltirishga imkon beradi, bu esa asoratlarni basoratlsh, onalar o'limi va nogironligini oldini olishga imkon yaratadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Trombotik mikroangiopatiyalar bilan bog'liq bo'lgan homiladorlik asoratlarini diagnostikasi va patogenetik profilaktika tamoyillarini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

birinchi ilmiy yangilik: homiladorlarda trombotik mikroangiopatiyalarning rivojlanishida og'irlashgan anamnezning hal qiluvchi roli isbotlandi, oilaviy trombotik anamnez, somatik va akusherlik anamnezi kabi holatlar HELLP - sindromi, KAFS, og'ir preeklampsiya bilan kasallangan bemorlarda yuqori

chastotada uchrashi aniqlandi, bu, o‘z navbatida, ushbu anamnestik omillar shunchaki xavf omillari emas, balki kasallikning eng og‘ir (fulminant) shakllariga transformatsiyasining asosiy yashirin prediktorlari ekanligini isbotlangan shu bilan birga, ushbu tasniflarning qo‘llanilishi baholanib, ularning afzalliklari va isbotlanganligi «Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligini ilmiy-amaliy tibbiyot markazi» davlat muassasining Toshkent shahar filiali 05.06.2025 yildagi 95-son buyruq, «Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligini ilmiy-amaliy tibbiyot markazi» davlat muassasining Sirdaryo viloyati filiali 03.06.2025 yildagi 101-son buyruq, Toshkent Shahar Olmazor tumani TTB-MKTP 24.06.2025 yildagi 847-14-197-TB/2025-son buyruq, Toshkent Shahar Shayxontohur tumani TTB-MKTP 14.06.2025 yildagi 701-14-205-TB/2025-son buyruqlariga muvofiq amaliyatiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Sog‘likni saqlash vazirligi Ilmiy-texnik kengashining xulosasi 2025-yil 15-avgustdagagi 23-sonli yigilish bayonnomasi). ***Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi:*** homiladorlarda uchraydigan trombotik mikroangiopatiyalarni o‘z vaqtida aniqlash, oldini olish, oilaviy trombotik anamnez, somatik-akusherlik anamneziga katta ahamiyat berish va patogenetik zanjirning yangi bo‘g‘inlarini aniqlash perinatal yo‘qotishlar va onalar o‘limini darajasini pasaytiradi, profilaktika chora- tadbirlarini o‘z vaqtida ishlab chiqishga, perinatal yordam sifatini yaxshilashga, tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyati va samaradorligini oshirishga yordam beradi. ***Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi:*** aniqlangan qonuniyatlar oilaviy trombotik anamnezga ega bo‘lgan va trombotik mikroangiopatiylarni havfi bo‘lgan homiladorlarni o‘z vaqtida aniqlash, oldini olish orkali perinatal yo‘qotishlar, onalar o‘limi va invalidizatsiyasi darajasini kamaytirgan, bu esa perinatal yordam resurslaridan samarali foydalanishni ta’minlagan bo‘lib, 48 ta homilador ayollarni xolati o‘rganilgan zamonaviy diagnostika, chuqur anamnestik tahlillarni tasniflash tizimi va profilaktika chora-tadbirlarini joriy etish iqtisodiy xarajatlarni 498278000 so‘m kamaytirish imkonini bergen ***Xulosa:*** homiladorlarda uchraydigan trombotik mikroangiopatiylarni o‘z vaqtida tashxislash, zamonaviy tizimlarini joriy etish klinik amaliyatda o‘z axamiyatini ko‘rsatgan, xavf omillarini anikroq baholash va profilaktika choralar samaradorligini oshirish imkonini bergen, bu esa o‘z vaqtida tashxis ko‘yish va tibbiy yordamni optimallashtirish orkali sog‘liqni saklash tizimiga tushadigan moliyaviy yukni kamaytirgan, trombotik mikroangiopatiylar bilan bog‘liq har bir xolat uchun o‘rtacha 8591000 so‘mni tejash imkonini bergen;

ikkinci ilmiy yangilik: homiladorlar trombotik mikroangiopatiyasining og‘irlashish trayektoriyasini belgilovchi yashirin prediktorlar sifatida aniq genetik markerlarning yetakchi prognostik roli isbotlandi. F5 Leiden (G1691A) mutant gomozigot genotipi tashuvchanligi HELLP -sindromi rivojlanish imkoniyatini 14,8 martaga, MTHFR C677T polimorfizmi esa — 10,1 martaga oshirishi aniqlandi. KAFS-sindromi uchun bir nechta protrombotik mutatsiyalar, xususan F2 Prothrombin G20210A va PAI-1 4G/4Gning kumulyatsiyasi (to‘planishi) xos ekanligi isbotlandi, bu homiladorlarda trombotik mikroangiopatiyaning fulminant shakllari turli xil genetik asosga ega ekanligi isbotlangan hamda natijalar «Homilador ayollar trombomikroangiopatiyasi rivojlanishida prognostik ahamiyatga ega bo‘lgan xavf omillarini baholash» (Tibbiyot xodimlarining kasbiy

malakasini rivojlantirish markazi huzuridagi Muvofiqlashtiruvchi ekspert kengashi tomonidan 21.04.2025-yilda 8-son bilan tasdiqlangan) mavzusidagi uslubiy tavsyanoma va «Preeklampsiyani asoratlarini erta tashxislash va bashorat qilishda zamonaviy yondasuv» (Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi huzuridagi Muvofiqlashtiruvchi ekspert kengashi tomonidan 21.04.2025-yilda 8-son bilan tasdiqlangan) mavzusidagi uslubiy tavsyanomalarga kiritilgan va natijalar «Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligini ilmiy-amaliy tibbiyot markazi» davlat muassasining Toshkent shahar filiali (05.06.2025 yildagi 95-son buyruq), «Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligini ilmiy-amaliy tibbiyot markazi» davlat muassasining Sirdaryo viloyati filiali (03.06.2025 yildagi 101-son buyruq), Toshkent Shahar Olmazor tumani TTB-MKTP (24.06.2025 yildagi 847-14-197-TB/2025-son buyruq) Toshkent Shahar Shayxontohur tumani TTB-MKTP (14.06.2025 yildagi 701-14-205-TB/2025-son buyruq) amaliyotiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Sog‘likni saqlash vazirligi Ilmiy-texnik kengashining xulosasi 2025-yil 15-avgustdaggi 23-sonli yigilish bayonnomasi). **Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi:** genetik skrining profilaktika uchun asos yaratib beradi ya’ni homiladorlikni rejalashtirish bosqichidayoq genetik jihatdan yuqori xavfga ega bo‘lgan ayollarni aniqlash onalar va perinatal o‘lim hamda nogironlikni kamaytirish, hayot sifatini, reproduktiv salomatlikni yaxshilashga olib keladi. **Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi:** genetik skriningni xavf guruhidagi ayollarda qo‘llash katastrofik xolatlarni o‘z vaqtida aniqlash va homiladorlikni boshqarish taktikasini optimallashtirish imkonini bergen. Bu shoshilinch kesar kesish operatsiyalari sonini va ona va bolaning intensiv terapiyaga bo‘lgan ehtiyojini kamaytirgan, natijada trombotik mikroangiopatiya xavfi bo‘lgan 48 nafar bemor uchun jami o‘rtacha 443246000 so‘m mablag‘ tejalishiga olib kelgan. **Xulosa:** Bu yerdagi iqtisodiy samaradorlik juda katta, chunki og‘ir asoratlarni davolash har doim kasallikni oldini olishga ketadigan xarajatlardan bir necha baravar qimmat turadi. Bir nechta polimorfizmlarga bir martalik genetik testning narxi rivojlanib bo‘lgan kasallikni davolash qiymatidan solishtirib bo‘lmaydigan darajada past. Ushbu tadqiqot bunday genetik skriningni xavf guruhidagi ayollarni tekshirish standartlariga kiritish uchun iqtisodiy asos yaratadi, natijada bir nafar bemor xisobiga o‘rtacha 9651000 so‘m iqtisod kilish imkonini bergen;

uchinchchi ilmiy yangilik: yashirin xavfni miqdoriy baholash uchun innovatsion multiparametrik vosita - TMA Og‘irlilik Integral Indeksi (TMSI) ishlab chiqildi, metodologik jihatdan asoslandi va validatsiyadan o‘tkazildi, bu 10 ta anamnestik, genetik va laborator prediktorlarni birlashtirgan kompleks TMSI-10 indeksi HELLP-sindromini og‘ir preeklampsiyadan ($AUC=0.806$) va KAFSni og‘ir preeklampsiyadan ($AUC=0.862$) farqlash uchun yuqori prognostik aniqlikka ega ekanligi isbotlandi va tizimli poliorgan shikastlanish darajasini aks ettiruvchi yagona, kuchli omil sifatida TMSI ning yuqori bashorat qilish qobiliyati ($p=0.0047$) isbotlangan. Integrallashgan Trombotik Mikroangiopatiya Og‘irlilik Indeksi (TMSI) -bu ko‘rsatkich haqida to‘liq ma’lumot «Homilador ayollar trombomikroangiopatiyasi rivojlanishida prognostik ahamiyatga ega bo‘lgan xavf omillarini baholash » nomli uslubiy ko‘llanmaga kiritilgan (Tibbiyot xodimlarining 14

kasbiy malakasini rivojlantirish markazi huzuridagi Muvofiqlashtiruvchi ekspert kengashi tomonidan 21.04.2025-yilda 8-son bilan tasdiqlangan) ва натижалар «Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligini ilmiy-amaliy tibbiyot markazi» davlat muassasining Toshkent shahar filiali (05.06.2025 yildagi 95-son buyruq), «Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligini ilmiy-amaliy tibbiyot markazi» davlat muassasining Sirdaryo viloyati filiali (03.06.2025 yildagi 101-son buyruq) amaliyotiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Sog‘likni saqlash vazirligi Ilmiy-texnik kengashining xulosasi 2025-yil 15-avgustdagi 23-sonli yigilish bayonnomasi). ***Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi:*** indeksning prognostik kuchi tizimli poliorgan yetishmovchiligi, invalidizatsiya kabi hayot uchun xavfli xolatlarni oldini oladi, perinatal yordam samaradorligini oshiradi va soglikni saklash tizimiga tushadigan moliyaviy yukni kamaytiradi. ***Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi:*** Indeksni klinik amaliyotda qo‘llash to‘g‘ridan to‘g‘ri tibbiy xarajatlarni koyka-kun qiymati, dori vositalari, laboratoriya tahllillari va iqtisodiyot uchun bilvosita yo‘qotishlarni (mehnatga layoqatsizlik varaqasi bo‘yicha to‘lovlar, nogironlik nafaqalari, samarali hayotning yo‘qotilgan yillari) kamaytirishga yordam beradi, bu nafaqat klinik, balki ahamiyatli makroiqtisodiy samarani ham ta‘minlaydi. Natijada, 58 nafar bemor hisobiga umumiy tejamkorlik 513996000 so‘mni tashkil etgan. ***Xulosa:*** taklif etilgan TMSI indeksi shunchaki yangi diagnostik marker emas, balki klinik va boshqaruv qarorlarini qabul qilishni qo‘llab-quvvatlovchi majmuaviy vositadir. U tibbiyotning reaktiv modelidan trombotik mikroangiopatiyasi bor bemorlarni olib borishning proaktiv, iqtisodiy jihatdan asoslangan va personallaشتirilgan strategiyasiga o‘tishga imkon yaratadi, bu esa tug‘ruq xarajatlarini bitta bemor uchun 8862000 so‘m iktisod kilish imkonini bergen;

to‘rtinchi ilmiy yangilik: TMSI-10 indeksi asosida og‘ir preeklampsianing fulminant shakllarga transformatsiyasining individual ehtimolini hisoblash imkonini beruvchi, prognostik matematik modellar (binar logistik regressiya asosida) ishlab chiqildi va validatsiya qilindi. TMSI-10 Indeksining bir birlikka oshishi HELLP-sindromi rivojlanish imkoniyatini (OR) 1,22 martaga va KAFS mavjudligi imkoniyatini — 1,30 martaga oshirishi aniqlandi, ushbu formulalarning yaratilishi har bir homiladorni shaxsiylashtirilgan ya’ni individual olib borish taktikasiga o‘tish uchun asos bo‘lgani isbotlangan, ona uchun xomiladorlikning salbiy okibatlari xavfini potensial ravishda kamaytirgani isbotlangan hamda «Homilador ayollar trombomikroangiopatiyasi rivojlanishida prognostik ahamiyatga ega bo‘lgan xavf omillarini baholash » nomli uslubiy ko‘llanmaga kiritilgan (Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi huzuridagi Muvofiqlashtiruvchi ekspert kengashi tomonidan 21.04.2025-yilda 8-son bilan tasdiqlangan) ва натижалар «Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligini ilmiy-amaliy tibbiyot markazi» davlat muassasining Toshkent shahar filiali (05.06.2025 yildagi 95-son buyruq), «Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligini ilmiy-amaliy tibbiyot markazi» davlat muassasining Sirdaryo viloyati filiali (03.06.2025 yildagi 101-son buyruq) amaliyotiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Sog‘likni saqlash vazirligi Ilmiy-texnik kengashining xulosasi 2025-yil 15-avgustdagi 23-sonli yigilish bayonnomasi). ***Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi:*** matematik model yuqori xavf guruhini dastlabki bosqichlarda ajratib olish imkonini beradi, bu

esa ushbu bemorlar uchun individual kuzatuv va profilaktik chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishga imkon yaratadi. Bu holat hayot uchun xavfli asoratlar rivojlanishini "o'tkazib yuborish" xavfini kamaytiradi. Onalar va go'daklar o'rtasida kasallanish/o'lim holatlarini kamaytiradi. ***Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi:*** matematik model yuqori xavf guruhini dastlabki bosqichlarda ajratib olish imkonini beradi, bu esa ushbu bemorlar uchun individual kuzatuv va profilaktik chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishga imkon yaratadi. Bu holat hayot uchun xavfli asoratlar rivojlanishini "o'tkazib yuborish" xavfini kamaytiradi. Onalar va go'daklar o'rtasida kasallanish,o'lim, invalidizatsiya holatlarini kamaytiradi. ***Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi:*** matematik modelni qo'llashga asosida homiladorlarda uchraydigan trombotik mikroangiopatiylarini erta tashxislash, xavfga yo'naltirilgan individual yondashuvning iqtisodiy qiymati isbotlandi. Prognostik stratifikatsiya iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq strategiya hisoblanadi, chunki u sog'liqni saqlash resurslarini optimallashtirishga, soglikni saklash tizimiga tushadigan moliyaviy yukni (ona va yangi tug'ilgan chaqaloq intensiv terapiyasini talab qiladigan) rivojlanishining oldini olishga hamda uzoq muddatli kasalxonada bo'lish va shoshilinch kesar kesish chastotasini kamaytirish imkonini beradi. Tadqiqotda 58 nafar homiladorlarda matematik model qollanilgan va ularning davolanishi uchun umumiy iqtisod 507036000 so'mni tashkil etgan. ***Xulosa:*** matematik modelni qo'llash yuqori xavf guruhini erta aniqlash, profilaktik chora-tadbirlarni o'z vaqtida olib borishga imkon beradi, bu bevosita og'ir asoratlar xavfini kamaytirishga, onalar va perinatal natijalarini yaxshilashga yordam beradi. Olingan natijalar asosida homiladorlarda uchraydigan trombotik mikroangiopatiylarini erta tashxislash va oldini olishda samaradorligi isbotlangan, bu xomiladorlik va tugruk xarajatlarini bitta bemor uchun 8742000 so'm iktisod kilish imkonini bergen;

beshinchi ilmiy yangilik: homiladorlar trombotik mikroangiopatiyasi bilan og'igan bemorlarda F5 Leiden, F2 Prothrombin va PAI-1 4G/4G mutatsiyalarini tashuvchanligi va yo'ldoshdagi tutqun vorsinkalar tomirlari trombozi darajasi, yo'ldoshning tayanch vorsinkalari tomirlarining obliteratsion angiopatiyasi hamda infarktlar maydoni o'rtasida kuchli ishonchli korrelyatsiya aniqlandi, bu genetik nuqsonlarning aniq patologik jarayon orqali amalga oshishini va klinik manzarani belgilashi to'g'ridan to'g'ri isbotlangan va ushbu natijalar «Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligini ilmiy-amaliy tibbiyot markazi» davlat muassasining Toshkent shahar filiali 05.06.2025 yildagi 95-son buyruq, «Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligini ilmiy-amaliy tibbiyot markazi» davlat muassasining Sirdaryo viloyati filiali 03.06.2025 yildagi 101-son buyruq, Toshkent Shahar Olmazor tumani TTB-MKTP 24.06.2025 yildagi 847-14-197-TB/2025-son buyruq, Toshkent Shahar Shayxontohur tumani TTB-MKTP 14.06.2025 yildagi 701-14-205-TB/2025-son buyruqlariga muvofiq amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Sog'likni saqlash vazirligi Ilmiy-texnik kengashining xulosasi 2025-yil 15-avgustdagli 23-sonli yigilish bayonnomasi). ***Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi:*** ushbu tadqiqotning ijtimoiy ahamiyati shundaki, u shifokorlarga kasallik oqibatlari bilan kurashish o'miga, uning rivojlanishidan oldin harakat qilish imkoniyatini beradi. O'z vaqtida amalga oshirilgan tibbiy aralashuv o'tkir buyrak yetishmovchiligi (dializni talab qiladigan), insult, platsentaning barvaqt ko'chishi kabi halokatli asoratlarning oldini olishga yordam beradi, og'ir poliorgan yetishmovchiligin davolash o'miga, uning rivojlanishining oldini olishga

imkon beradi bu esa bevosita ayollar hayoti va salomatligini saqlab qoladi. Homiladorlarda trombotik mikroangiopatiyaning avj olishi ko‘pincha juda erta muddatlarda shoshilinch tug‘ruq amaliyotini o‘tkazishni talab qiladi, bu esa chuqur chala tug‘ilgan chaqaloqlar dunyoga kelishiga sabab bo‘ladi. Erta tashxis qo‘yish va onaning holatini barqarorlashtirish esa bolaning yashab ketishi va sog‘lom hayot kechirish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi va soglikni saqlash tizimiga tushadigan moliyaviy yukni kamaytiradi. ***Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi:*** homiladorlarda uchraydigan trombotik mikroangiopatiylarini diagnostik markerlari takroriy instrumental va laborator tekshiruvlar xarajatlarini kamaytirgan, umumi tekshiruv xarajatlarini qiskartirgan. Natijada 58 nafar bemor uchun umumi tejamkorlik 45762000 so‘mni tashkil etgan. **Xulosa:** homiladorlarda uchraydigan trombotik mikroangiopatiylarini aniqlashda va oldini olishda diagnostik markerlaridan tashxislash jarayonida samarali foydalanish reanimatsiya va intensiv terapiya bo‘limida yotish va shoshilinch operativ aralashuvlarni oldini olish, xar bir bemor uchun o‘rtacha 6546000 so‘m iktisod qilish imkonini bergen;

oltinchi ilmiy yangilik: olingan matematik model asosida klinik amaliyot uchun algoritm ishlab chiqildi, ushbu algoritm anamnezni baholash, TMSI indeksini hisoblash va bemorlarni past va yuqori havf guruhlariga stratifikatsiya qilishni o‘z ichiga oladi, bu esa trombotik mikroangiopatiyaga moyil homiladorlarni olib borishda personallashtirilgan yondashuvni joriy etish uchun ilmiy asos bo‘la olishi isbotlandi hamda natijalar «Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligini ilmiy-amaliy tibbiyot markazi» davlat muassasining Toshkent shahar filiali (05.06.2025 yildagi 95-son buyruq), «Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligini ilmiy-amaliy tibbiyot markazi» davlat muassasining Sirdaryo viloyati filiali (03.06.2025 yildagi 101-son buyruq) amaliyotiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Sog‘likni saqlash vazirligi Ilmiy-texnik kengashining xulosasi 2025-yil 15-avgustdagagi 23-sonli yigilish bayonnomasi). ***Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi:*** TMSI indeksi ijtimoiy samaradorligi shifokor xatolari xavfini kamaytirish, davolashning uzlusizligini ta‘minlash va bemorlarni olib borishning yagona standartlarini joriy etish hisobiga tibbiy yordam sifati va xavfsizligini oshirishda namoyon bo‘ladi. Uzoq muddatli parvarish va tibbiy kuzatuvga bo‘lgan ehtiyojni kamaytiradi, reproduktiv prognozni yaxshilaydi, onalar bolalar o‘limi sonini kamaytiradi, onalar va yangi tug‘ilgan chaqaloqlarning hayot sifatini yaxshilashga yordam beradi. ***Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi:*** TMSI indeksi asosidagi algoritm iqtisodiy qiymati davolash-diagnostika jarayonini optimallashtirishdan iborat bo‘lib bemorlarni oqilona yo‘naltirishni (marshrutizatsiyasini), resurslardan samarali foydalanishni va gospitalizatsiya muddatlarini qisqartirishni ta‘minlaydi, bu esa davolash uchun umumi xarajatlarning kamayishiga olib keladi. Tadqiqotimizda TMSI indeksi 106 ayolda qollanilgan va barcha xarajatlarni hisobga olgan holda, umumi 935072000 so‘mni tejash imkonini bergen. ***Xulosa:*** TMSI indeksiga asoslangan preventiv, pregravidar yondashuv og‘ir asoratlarni oldini olishga, reanimatsiya va uzoq muddatli reabilitatsiyaga sarflanadigan ulkan xarajatlarning qisqartirishga, sog‘liqni saqlash byudjetiga tushadigan yuklamani kamaytirishga olib kelgan, natijada TMSI indeksini ko‘llash xar bir bemor uchun o‘rtacha 8658074 so‘mni tejash imkonini bergen.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda muxokama kilingan, jumladan, 4 ta xalkaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon kilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 33 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 23ta maqola, jumladan, 10 ta respublika, 12 ta xorijiy va 1 ta Scopus jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va xajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, besh bob, xulosa, amaliy tavsiyalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning xajmi 212 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY QISMI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbliji va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natjalarning nazariy va amaliy ahamiyati oshib berilgan, tadqiqot natijalarini joriy qilish, chop etilgan ishlar va dissertatsiya strukturasi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning "**Trombotik mikroangiopatiya: ta'rifi, fundamental patogenetik mexanizmlari va zamonaviy tasnifi.**" birinchi bobida kasallik patogenezi, tashxisoti va TMA bo'lgan homilador ayollarni kuzatish taktikasi haqidagi zamonaviy adabiyotlar sharhi keltirilgan. Adabiyotlar sharhida fetoplatsentar tizimning funksional holatini aks ettiruvchi fetal markerlarni o'rganish mezonlari bayon etilgan. Adabiyotlar sharhi beshta kichik boblardan iborat.


Dissertatsiyaning "**Tadqiqot materiallari va usullari**" deb nomlangan ikkinchi bobida qo'yilgan vazifalarni hal qilish uchun biz tomonidan 423 nafar ayol tekshirildi. Asosiy guruhni TMA bilan og'rigan 373 nafar homilador ayol tashkil etdi. Asosiy guruh uchta kichik guruhga bo'lindi: I guruhni og'ir preeklampsiyasi bo'lgan 327 nafar homilador; II guruhni HELLP sindromi tashxisi qo'yilgan 34 nafar homilador; III guruhni KAFS sindromi bo'lgan 12 nafar homilador ayol tashkil etdi. Nazorat guruhini homiladorligi fiziologik kechayotgan 50 nafar somatik sog'lom ayol tashkil etdi, Tadqiqotga homiladorlik muddatining 22nchi haftasidan boshlab olganmiz, ularning o'rtacha yoshi $31,52 \pm 3,63$ yoshni (19 yoshdan 46 yoshgacha) tashkil etdi. Asosiy guruhdagi homiladorlarning o'rtacha yoshi $31,52 \pm 3,63$ yoshni, nazorat guruhida esa $25,7 \pm 2,31$ yoshni tashkil etdi.

Klinik-laborator va instrumental (UTT, dopplerografiya), laboratoriya usullari umumiy va biokimyoviy qon tahlili, umumiy siyidik tahlili, gemostaz tizimi parametrlarini tekshirishni, molekulyar-genetik tekshiruvlar va yo'ldoshning morfometrik va immunogistokimyoviy tekshiruvlarini o'z ichiga oldi.

Tadqiqotning birinchi bosqichida biz tomonimizdan yagona tekshiruv kartasi tuzildi, ikkinchi bosqichda esa ma'lumotlar statistik tahlil – korrelyatsiya, regressiya, dispersion tahlil o'tkazish uchun IBM SPSS Statistics platformasiga kiritildi va ushbu ma'lumotlar asosida prognostik modellasshtirish amalga oshirildi, guruhlarni qiyosiy tahlil qilishda Mann-Whitney U-mezoni, Pirsonning xi-kvadrat (χ^2) mezoni, ROC-egri chiziqlari qo'llanildi va Regressiya modellarining kuzatilgan ma'lumotlarga muvofiqligi sifati Hosmer-Lemeshow testi yordamida baholandi.

Dissertatsiyaning “**Homilador ayollar tombotik mikroangiopatiyada biokimiyoviy, instrumental va genetik ko‘rsatkichlarning o‘ziga xos xususiyatlari**” deb nomlangan uchinchi bobida tug‘ishlar soni bo‘yicha ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, TMA bilan og‘rigan asosiy guruhda qayta homilador bo‘lganlar soni birinchi marta homilador bo‘lganlarga qaraganda 8 baravar ko‘p bo‘lgan, ulardan birinchi marta tug‘uvchilar 42,1% ni, qayta tug‘uvchilar esa 57,9% ni tashkil etgan. Nazorat guruhida birinchi marta homilador bo‘lganlar va birinchi marta tug‘uvchilar qayta homilador bo‘lganlar va qayta tug‘uvchilarga qaraganda 3 baravar ko‘p bo‘lgan.

TMA bilan og‘rigan asosiy guruhdagi homiladorlarning oilaviy anamnezi, somatik anamnezi (1-rasm) shuni ko‘rsatdiki, tekshirilayotgan guruhlardagi homiladorlarda ekstragenital kasalliklar orasida anemiyalar yetakchi o‘rinni egallagan.



1-rasm. Tekshirilayotgan guruhlarda asosiy anamnestik xavf omillari chastotasi


Asosiy guruhda ayollarning 62,1% anemiyadan aziyat chekkan. Nazorat guruhida homiladorlarning 16,0% i anemiyadan aziyat chekkan. Siyidik chiqarish tizimi kasalliklaridan surunkali piyelonefrit va sistit asosiy guruhda nazorat guruhiga qaraganda 3 baravar ko‘p uchragan. Nafas olish tizimi kasalliklari (surunkali tonsillit, surunkali bronxit, tez-tez respirator kasalliklar, bronxopnevmoniya) asosiy guruhda nazorat guruhiga qaraganda 1,5 baravar ko‘p uchragan. Oshqozon-ichak trakti kasalliklari (surunkali gastroduodenit, surunkali xoletsistit va surunkali kolitlar) I-asosiy guruhda nazorat guruhiga qaraganda 2 baravar ko‘p uchragan. Neyroendokrinologik buzilishlar (semizlik, endemik bo‘qoq), venalarning varikoz

kengayishi 2 baravar, Livedo racemosa ham TMA bilan og‘rigan asosiy guruhda 1,5 baravar ko‘p uchragan.

Ekstragenital patologiya chastotasi ancha yuqori bo‘lib chiqdi. Yo‘ldosh kasalliklar chastotasi va xarakterini aniqlash maqsadida qiyosiy tavsif berildi.

Ginekologik anamnezdan ko‘rinib turibdiki, asosiy guruhda ayollarning 42,2% i bepushtlikdan aziyat chekkan, nazorat guruhida esa faqat 6,6% ayollar bepushtlik sababli davolangan. Ehtimol, asosiy guruhdagi ikkilamchi bepushtlikning yuqori ko‘rsatkichlari genetik polimorfizmlar bilan bog‘liq.

Asosiy guruhlardagi bemorlarning ginekologik anamnezining og‘irligini hisobga olgan holda, biz tekshirilayotgan guruhlarda reproduktiv yo‘qotishlarni tahlil qildik. Asosiy guruhda o‘z-o‘zidan homila tushishi 46,4% ni tashkil etdi, bu nazorat guruhiga qaraganda deyarli 2 baravar ko‘pdir. Asosiy guruhda rivojlanmay qolgan homiladorlik nazorat guruhiga qaraganda 3 baravar ko‘p uchragan (2-rasm). Ginekologik anamnez kelajakdagi homiladorlik uchun yuqori xavfni ko‘rsatgan.



2-rasm. Asosiy akusherlik va somatik asoratlar.

Asosiy guruhdagi ayollarning akusherlik anamnezining tavsifi katta qiziqish uyg‘otadi. asosiy guruhdagi homiladorlarning akusherlik anamnezi ham o‘ta og‘irlashganligini ko‘rsatdi: muddatidan oldingi tug‘ruq 37,3% da, homila o‘sishini cheklash sindromi 29,3% homiladorda, 19,3% homilador ayolda antenatal homila o‘limi yuz bergen. Ayniqsa, tug‘ruqning homila uchun oqibati noqulay bo‘lgan. Asosiy guruhda perinatal yo‘qotishlar 7,3% ni tashkil etgan.

Joriy homiladorlikning kechishini tahlil qilish tekshirilayotgan guruhlardagi ayollarda shuni ko‘rsatdiki, tekshirilayotgan guruhlardagi homiladorlarda bir xil chastotada erta toksikozlar kuzatilgan. Yengil darajadagi preeklampsiya mos ravishda 18% va 20% hollarda qayd etilgan. Eng ko‘p uchraydigan ekstragenital patologiya anemiya bo‘lib, asosiy guruhda $49,3 \pm 2,5\%$ da, nazorat guruhida esa barcha homiladorlar anemiyadan aziyat chekkan $\pm 2,1\%$. Joriy homiladorlik erta muddatlarda o‘z-o‘zidan homila tushishi xavfi bilan asoratlangan, bu asosiy guruhda 68,3% ni va taqqoslash guruhida 37,7% ni tashkil etgan. Shunga ko‘ra, muddatidan 20

oldingi tug‘ruq xavfi asosiy guruhda taqqoslash guruhiga qaraganda 2 baravar ko‘p uchragan.

Bundan tashqari, asosiy guruhdagi homiladorlarning 34,8% ida surunkali piyelonefritning kuchayishi qayd etilgan, shunga ko‘ra taqqoslash guruhida ushbu asorat o‘rtacha 24,7% ni tashkil etgan.

Ushbu bo‘limda TMA ning turli shakllari bo‘lgan bemorlarda va nazorat guruhida asosiy klinik-laborator markerlarning qiyosiy tahlili natijalari jadvalda keltirilgan.

TMA bilan kasallangan barcha guruh bemorlarida trombotsitlarning o‘rtacha darajasi nazorat guruhiga nisbatan statistik ahamiyatli darajada past bo‘ldi. Eng yaqqol trombotsitopeniya HELLP-sindromi bilan kasallangan bemorlarda kuzatildi, ularda trombotsitlarning o‘rtacha darajasi $79.5 \pm 0.607 \times 10^9/l$ ni tashkil etdi, boshqa guruhlarida trombotsitlar darajasi biroz yuqoriroq, ammo sezilarli darajada pasaygan edi.

Umumiy qon tahlili ko‘rsatkichlari tahlili natijalari TMA bilan kasallangan barcha tekshirilayotgan guruh bemorlarida TMA uchun xos bo‘lgan o‘zgarishlar (trombotsitopeniya, MAGA belgilari – shizotsitoz, anemiya) mavjudligini tasdiqladi. Shizotsitlar OPE guruhidagi 75,5% (n=247) ayollarda 0,45% tashkil qilgan bo‘lsa, HELLP-sindromi guruhidagi ayolni hammasida o‘rtacha 1,5-2% tashkil qildi. Ushbu o‘zgarishlarning yaqqollik darajasi TMA shakliga qarab farq qildi, bunda eng chuqur trombotsitopeniya va eng yaqqol shizotsitoz HELLP va KAFS sindromlari bilan kasallangan bemorlar uchun xos edi. Olingan ma'lumotlar xavf guruhidagi homilador ayollarda mikroangiopatiya belgilarini o‘z vaqtida aniqlash uchun periferik qon surtmasini majburiy mikroskopiya qilish bilan birga muntazam umumiy qon tahlilining muhimligini ta‘kidlaydi.

Biokimyoviy markerlar gemoliz darajasini, jigar va buyraklar funksiyasini baholashda, shuningdek TMA og‘irligi va dinamikasini monitoring qilishda asosiy rol o‘ynaydi. Pastdagi jadvalda tekshirilayotgan guruhlardagi bemorlarda TMA manifestatsiyasi paytida asosiy biokimyoviy ko‘rsatkichlarning qiyosiy tahlili natijalari va a ma'lumotlar, ularning dinamikasi keltirilgan.

Laktatdehidrogenaza (LDG): TMA bilan kasallangan barcha guruh bemorlarida LDG ning o‘rtacha darajasi nazorat guruhiga nisbatan statistik ahamiyatli darajada yuqori bo‘ldi (nazorat guruhida 212.12 ± 0.578 , barcha taqqoslashlar uchun $p < 0,001$). LDG ning eng yuqori ko‘rsatkichlari HELLP-sindromi (II guruh) bilan kasallangan bemorlarda qayd etildi, ularda o‘rtacha daraja $688.15 \pm 2,61$ ni tashkil etdi. LDG darajasi >600 (HELLP-sindromining mezonlaridan biri va yaqqol gemoliz/sitoliz belgisi) kuzatildi. LDG dinamikasi: HELLP-sindromi guruhlarida LDG ning eng yuqori darajasi ko‘pincha tug‘ruqdan keyingi 24-72 soat ichida kuzatildi, shundan so‘ng asta-sekin pasayish kuzatildi. LDG ning yuqori darajasining uzoq vaqt saqlanib qolishi og‘irroq kechish va sekin tiklanish bilan bog‘liq edi.

Qon zardobidagi kreatininning o‘rtacha darajasi TMA ning KAFS va HELLP sindromi guruhlarida nazorat guruhiga nisbatan statistik ahamiyatli darajada yuqori bo‘ldi. Kreatininning eng yuqori o‘rtacha ko‘rsatkichlari KAFS 118.3 ± 0.53 mkmol/l bilan kasallangan bemorlarda qayd etildi. HELLP-sindromi guruhida o‘rtacha kreatinin mos ravishda $104,15 \pm 2,17$ mkmol/l ni tashkil etdi. Qon zardobidagi umumiy oqsil-darajasi chegaraviy qiyamatni ko‘rsatish, TMA ning barcha guruhlari uchun xos bo‘lib, kapillyarlarning yuqori o‘tkazuvchanligini, siydk bilan oqsil

yo'qotilishini (proteinuriyada) va jigarning sintetik funksiyasining mumkin bo'lgan buzilishini aks ettirdi. Oqsilning o'rtacha darajasi HELLP-sindromi va OPE bilan kasallangan bemorlarda $p < 0,001$ nisbatan eng past edi.

Gemostaz tizimining holatini o'rganish TMA diagnostikasi va monitoringining ajralmas qismi hisoblanadi, chunki koagulyatsiya va fibrinoliz buzilishlari mikrotromboz hosil bo'lishi patogenezida muhim rol o'ynaydi, koagulyatsiya va fibrinoliz faollahuvi belgisi bo'lgan D-dimer darajasi TMA bilan kasallangan barcha guruh bemorlarida nazorat guruhiga nisbatan statistik ahamiyatli darajada yuqori bo'ldi nazorat guruhida 1562 ± 2 ng/ml barcha taqqoslashlar uchun $p < 0,001$, D-dimerning eng yuqori o'rtacha ko'rsatkichlari KAFS bilan kasallangan bemorlarda qayd etildi – bu TMA ning boshqa guruhlariga nisbatan ishonchli darajada yuqori edi D-dimer darajasining sezilarli darajada oshishi kuzatildi. Qon plazmasidagi gomotsisteining o'rtacha darajasi HELLP-sindromi bilan KAFS kasallangan bemorlarda nazorat guruhiga nisbatan 2 barobar yuqori bo'ldi.

Antifosfolipid antitanachali asosan KAFS sindromida juda yuqori korsatkichlarda uchrasi kuzatildi, II-guruhda III-chi guruhga nisbatan 3 barobar kam uchradi. Bu autoimmun jarayonni jadalligini va ogirligini markeri bolil qoldi.

Bo'richa antikoagulyanti, kardiolipinga va $\alpha\beta 2$ -GPI ga qarshi antitanalarning bir vaqtda sirkulyatsiyasi kuzatilgan ayollarda, yakka tartibda bitta turdag'i AFA (antifosfolipid antitana) oshishi kuzatilgan ayollarga nisbatan, 10 hafta va undan katta muddatlarda o'z-o'zidan homila tushishi 3 baravardan ko'proq, 12 haftagacha rivojlanmay qolgan homiladorlik 2 baravar ko'proq va antenatal homila o'limi deyarli 3 baravar ko'proq qayd etildi.

Asosiy guruhdagi dopplerometrik tadqiqotlar natijalarini tahlil qilishda ona-yo'ldosh-homila tizimidagi gemodinamika ko'rsatkichlarida nazorat guruhining analogik ko'rsatkichlariga nisbatan ishonchli farqlar aniqlandi. Asosiy guruhda homiladorlarning $46,67 \pm 9,11\%$ ida bachadon-yo'ldosh qon oqimining ishonchli buzilishi kuzatildi.

Asosiy guruhdagi homiladorlarda bachadon-yo'ldosh qon oqimidagi QOTECH (qon oqimi tezligi egri chiziqlari) ni taqqoslashda nazorat guruhni ko'rsatkichlariga nisbatan SDN ($2,90 \pm 0,08$), PI ($1,643 \pm 0,06$) va RI ($0,67 \pm 0,03$) ning ishonchli oshishi aniqlandi ($r < 0,001$).

O'rta miya arteriyasida (O'MA) tezlik egri chiziqlarining dopplerometrik tekshiruvi o'tkazildi. Asosiy guruhdagi dopplerometrik ko'rsatkichlarni o'rganishda quyidagi o'ziga xosliklar aniqlandi:

- homila-yo'ldosh bo'g'inida tomir rezistentligining izolyatsiyalangan oshishi (kindik arteriyasida SDN $> 3,0$, RI $> 0,67$) $33,33 \pm 8,61\%$ kuzatuvlarda;

- homila-yo'ldosh bo'g'inida tomir rezistentligining oshishi KA (kindik arteriyasida) - SDN $> 3,0$, RI $> 0,67$, O'MAda tomir rezistentligining pasayishi (SDN $< 2,3$, PI $< 1,0$) bilan birgalikda – $26,67 \pm 8,67\%$ kuzatuvlarda.

Asosiy guruhda SDN $1,89 \pm 0,06$, PI – $0,98 \pm 0,03$ ($r < 0,001$), RI – $0,78 \pm 0,01$ ni tashkil etdi. Nazorat guruhida ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda – $3,86 \pm 0,10$, $1,62 \pm 0,03$ va $0,81 \pm 0,02$ ni tashkil etdi. Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, homila gemodinamikasining qayta qurilishi miyaning qon bilan ta'minlanishining kuchayishiga olib keladi (o'rta miya arteriyasida tomir qarshiligi indekslarining pasayishi). KA da tomir qarshilagini qiyosiy tahlil qilishda asosiy guruhda nazorat guruhiga nisbatan uning 6 baravar oshishi kuzatiladi. Shuni

ta'kidlash kerakki, bunda yo'ldosh ichi qon oqimining bиргаликдаги бузилишлари аниланади.

Shunday qilib, asosiy guruhda homila-yo'ldosh bo'g'inida qon oqimi parametrlarini dopplerometrik o'рганиш шуни ко'rsatdiki, kindik arteriyasida tomir qаршилигининг изолятсиyalangan oshishi (SDN 3,0 dan yuqori) 33,33% da, kindik arteriyalari va o'rtal miya arteriyasida qon oqimining bиргаликдаги бузилишлари 26,67% kuzatuvlarda qayd etiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, umuman olganda, nazorat guruhida yo'ldosh ichi qon oqimining bузилишлари 4% da, asosiy guruhda esa – 60% da аниланади, bu 15 baravar ko'pdır. Homila-yo'ldosh qon oqimining o'zgarishlari (kindik arteriyalarida rezistentlik indekslari ko'rsatkichlarining oshishi va O'MA da tomir rezistentligi ko'rsatkichlarining pasayishi) homilaning mavjud gipoksemiyasini aks ettiradi.

Biz genlar polimorfizmlari va kombinatsiyalarining (F5–Leyden (G1691A); F2–protrombin (G20210A); PAI-1 (4G/5G-polimorfizmi); MTHFR (C677T, A1298C); MTR (A2756G); AGTR1 (A1166C); AGTR2 (G1675A)) uchrash chastotasini tahlil qildik va ularning TMA rivojlanish xavfi bilan assotsiatsiyasini baholadik. Uch guruhdagi bemorlarni — og'ir preeklampsya (OPE), HELLP-sindromi va katastrofik antifosfolipid sindromi (KAFS) bilan og'rigan ayollarni sog'lom nazorat guruhi bilan taqqoslaganda, biz shunchaki statistik farqlarni emas, balki ushbu xavfli holatlarning rivojlanishini oldindan belgilab beruvchi chuqur genetik asosni ko'ramiz. Klinik manzaraning preeklampsiyadan HELLP-sindromiga va nihoyat, katastrofik AFSga tomon og'irlashishi bilan eng xavfli, gomozigot mutatsiyalarning uchrash chastotasi muttasil ortib borishi kuzatiladi. Bunga yaqqol misol-Leyden mutatsiyasi (F5 Leyden).

Agar preeklampsya guruhida uning gomozigot varianti (AA) atigi 2,1%da uchrasa, HELLP-sindromida bu ko'rsatkich deyarli uchdan bir bemorda (29,4%) аниланади. KAFS guruhida esa bu o'ta xavfli genotip barcha ayollarda — 100% holatda topiladi, bu esa genetik moyillikni deyarli muqarrar oqibatga aylantiradi. Xuddi shunday salbiy dinamika protrombin (F2) va PAI-1 genlarida ham kuzatiladi: bu yerda tashxisning og'irlashishiga qarab protrombotik genotiplarning chastotasi bir necha barobar ortadi. Ushbu patologik jarayonda MTHFR genida aks etgan folat siklining bузилишлари alohida o'rin tutadi.

Ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, HELLP-sindromi va KAFS bilan og'rigan ayollarda ushbu genning normal, himoyalovchi genotipi umuman uchramaydi. Bu organizmning folat kislotasini yetarli darajada o'zlashtira olmasligi shunchaki qo'shimcha xavf omili emas, balki usiz eng og'ir asoratlarning rivojlanishi deyarli mumkin bo'lmaydigan fundamental zaiflik ekanligidan dalolat beradi. Ushbu manzarani MTR geni muhim bir jihat bilan to'ldiradi: garchi u mutlaq marker bo'lmasa-da, uning mutant alleli (AG) aynan HELLP guruhida anomal darajada yuqori chastota (61,76%) bilan uchrashi har bir sindromning murakkab, ko'p faktorli tabiatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Umuman olganda, jadval tasodifiy mos kelishlar haqida emas, balki genetik yuklamaning kumulyativ ta'siri haqida dalolat beradi. Homiladorlikning og'ir asoratlari bir nechta zaifliklar jamlangan "ideal bo'ron" natijasi sifatida namoyon bo'ladi: bular trombozlarga moyillik, metabolizm nuqsonlari va qon tomirlari regulyatsiyasining bузилишидир. Ayol organizmida bunday genetik "nuqsonlar" qanchalik ko'p bo'lsa, eng falokatli ssenariylarning rivojlanish xavfi shunchalik yuqori bo'ladi.

Dissertatsiyaning “**Homiladorlar trombotik mikroangiopatiyaning klinik-morfologik o’zaro bog’lig’iqliklari va patogenetik jihatlari**” to’rtinchi bobida yo’ldoshning gistomorfologik va gistokimyoviy tavsifi keltirilgan. Morfologik tadqiqotning birinchi bosqichida tekshiruv guruhalardan olingan 83ta platsentaning batafsil makroskopik ko’rigi va organometriyasi o’tkazildi.

Organometrik ko’rsatkichlar tahliliga o’tar ekanmiz, og’ir preeklampsiya guruhida yo’ldoshlarning o’rtacha massasi $(384,2 \pm 4,12)$ keskin kamayganligini kuzatildi, bu nazorat guruhiga nisbatan 100 gr ga kam, sezilarli darajada farq qiladi. HELLP-sindromi va KAFS guruhalarda ham yo’ldoshlarning o’rtacha massasi kamayishi kuzatildi. Trombotik mikroangiopatiya guruhalarda yo’ldoshlar hajmi ham shu kichrayishi kuzatildi, ona yuzasining maydoni ham xuddi shunday darajada keskin kamaydi, eng kichik hajm og’ir preeklampsiya guruhida $195,6 \pm 2,17$ sm^2 gacha va YHK (Yo’ldosh-Homila Koeffitsiyenti) $0,121 \pm 0,005$ ni tashkil etdi chunki bu guruhimizda kichik vaznlik vaqtidan oldin tugilgan chaqaloqlar tugilishi kuzatillingan. Biometrik tahlil natijalari shuni aniq tasdiqlaydiki, trombotik mikroangiopatiyalar yo’ldoshning o’lchangan barcha parametrlarining sezilarli darajada kamayishiga olib keladi. Yo’ldosh yetishmovchiligi va yo’ldosh hamda homila o’rtasidagi nomutanosiblikning eng yorqin belgilari preeklampsiya guruhida kuzatiladi, bu esa aynan shu guruhda surunkali patomorfologik o’zgarishlar ustunligi haqidagi ma’lumotlarga to’liq mos keladi.

Qon aylanishining buzilishi tahlili guruhalar o’rtasida muhim farqlarni ko’rsatdi: o’tkir infarktlar ayniqsa HELLP guruhida eng yuqori darajada (91,3%) namoyon bo’lgan, bu sindromga xos bo’lgan trombotik jarayonning to’satdanligi va o’tkirligini ta’kidlaydi, aksincha, surunkali infarktlar PE guruhida ustunlik qilgan (81,5%), bu esa yo’ldosh yetishmovchiligining uzoqroq, cho’zilgan xarakteriga ishora qiladi. Tayanch vorsinkalarining obliteratsion angiopatiyasi va detsidual plastinkaga qon quyilishi KAFS guruhida eng tez-tez uchraydigan topilmalar bo’lgan (ikkalasi ham 83,3% atrofida), bu og’ir qon tomir shikastlanishi va koagulopatik buzilishlardan dalolat berishi mumkin. Vorsinkalararo tromblar barcha TMA guruhalarda yuqori tarqalgan (73,6% dan 83,3% gacha), bu mikroangiopatiyaning umumiy belgisidir.


Involuyutiv-distrofik o’zgarishlarni o’rganish ham o’ziga xos xususiyatlarni aniqladi: kalsifikatlar (84,2%) va vorsinkalar fibrozi (60,5%) kabi uzoq davom etgan patologik jarayon belgilari OPE guruhida eng yaqqol ifodalangan, bu uning surunkali kechishini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, Vorsinkalararo fibrinoid HELLP-sindromi guruhida juda yuqori (78,2%) bo’lgan, Intravillyoz fibrinoid esa KAFS guruhida (75,0%) yuqori bo’lgan, bu yo’ldoshning o’tkir qon oqimining buzilishiga javob reaksiyasidir.

Shunday qilib, ushbu tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadi, garchi barcha uch guruhni trombotik mikroangiopatiya birlashtirsa-da, preeklampsiya surunkali yo’ldosh o’zgarishlarining ustunligi bilan tavsiflanadi, HELLP-sindromi va kamroq darajada, KAFS esa yaqqol ifodalangan o’tkir trombotik va qon tomir buzilishlari bilan bog’liqdir. Nazorat guruhi surunkali o’zgarishlarning minimal darajasini ko’rsatgan (5-10%), bu asosiy guruhlarda topilgan o’zgarishlarning patologik xususiyatini tasdiqlaydi.


Tayanch vorsinkalarda yaqqol gipoksiya mavjudligidan ularning zinch stromasida fibroblastlarning ko’pligi va ushbu vorsinkalar qoplovchi epiteliysi

tarkibida involyutiv sintsitital tugunchalarning ustunligi dalolat beradi. Arteriolalar o'zanidagi shunga o'xshash o'zgarishlar oraliq vorsinkalarda ham aniqlanadi.

Endoteliotsitlar holatini aniqlashtirish uchun CD34 markeri yordamida immunovizualizatsiya eng ko'rgazmali bo'lib chiqdi. Ushbu mikropreparatlarda(3-rasm), HELLP-sindromida yo'ldoshdagi 1-tartibli tayanch vorsinka tarkibida arteriola tor bo'shlig'ida endoteliotsitlar giperplaziyasi, venulada endoteliotsitlarning to'siqsimon joylashuvi, bo'shliqda gemolizga uchragan eritrotsitlar sohalari, paravaskulyar kapillyar to'rnning yo'qligi, CD34 markerining ekspressiyasi kuzatiladi. Og'ir preeklampsiyada (4-rasm) yo'ldoshdagi arteriolalarda obliteratsion angiopatiya, venula ektaziyasi, oraliq va terminal vorsinkalar stromasida tor kapillyarlarning markaziy joylashuvi, sintsitiokapillyar membranalarning yo'qligi, CD31 markerining ekspressiyasi kuzatildi.



3-rasm HELLP-sindromida yo'ldoshdagi CD34 markerining ekspressiyasi, x100



4-rasm. Og'ir preeklampsiyada yo'ldoshdagi CD31 markerining ekspressiyasi, x100

Bizning tadqiqotimizga ko'ra, TMA rivojlanishining asosida obliteratsion angiopatiya alohida rol o'ynaydi, uning ifodalanish darajasi patologik jarayonning og'irligiga bevosita bog'liq. Trombotik mikroangiopatiya rivojlanib borgan sari, makro- va mikrometrik parametrlar (platsenta massasining kamayishi, onalik yuzasi maydonining kamayishi, vorsinkalararo fibrionid miqdorining oshishi, vorsinkalararo bo'shliq hajmi va vorsinkali xorion maydoni hamda uning strukturalarining kamayishi, asosan tayanch vorsinlarining zararlanishi bilan kechadigan qon tomir o'zanidagi obliteratsion angiopatiyaning kuchayishi) hisobiga tomirli-stromal komponentning distrofik o'zgarishlari darajasi va hajmi ortadi. Ushbu morfologik o'zgarishlar IGX (immunogistokimyoviy) tadqiqot ma'lumotlari bilan mos keladi, tayanch vorsinlar arteriolalarining obliteratsiya darajasining kuchayishi bilan birga qayd etiladi.

Dissertatsiyaning beshinchi bobu **"TMA Og'irlik Darajasi Integral Indekslari (TMSI) xavfni stratifikatsiyalashning yangi vositasi sifatida: prognostik qimmat va cheklovlar muhokamasi"** da Korrelyasion tekshiruv natijasida Issiqlik xaritasini taqdim etildi. Issiqlik xaritasinidagi korrelyatsion tahlil, yetakchi prediktorlar o'rtasida 0.9 dan yuqori koeffitsientlar bilan ekstremal darajadagi kuchli bog'liqlikni ko'rsatdi. O'tkazilgan kompleks korrelyatsion tahlil (issiqlik xaritasi ko'rinishida taqdim etilgan) asosiy laborator prediktorlarning aksariyati o'rtasida kuchli, statistik ahamiyatga ega bo'lgan o'zaro bog'liqliklarni

aniqladi (korrelyatsiya koeffitsientlari $|r| > 0.8$). Multikollinearlik deb nomlanuvchi bu hodisa ko'plab markerlar tizimli patologik jarayonning bir xil bo'g'inalarini (sitoliz, buyrak disfunksiyasi, koagulyatsiya aktivatsiyasi) aks ettirishini isbotlaydi.

Multikollinearlik muammosi: Asosiy laborator prediktorlarning aksariyati o'rtasida kuchli, statistik ahamiyatga ega bo'lgan korrelyatsiyalar mavjudligi aniqlandi. Masalan, jigar shikastlanishi markerlari (ALT, AST, LDG), buyrak disfunksiyasi markerlari (kreatinin, mochevina) va gemostaz aktivatsiyasi markerlari (D-dimer) o'rtasida yuqori korrelyatsiya kuzatildi. Multikollinearlik hodisasi shuni isbotlaydiki, alohida markerlar tahliliga asoslangan standart yondashuvlar "axborot shovqini" dan aziyat chekadi, chunki bir nechta ko'rsatkichlar mohiyatan bir xil patologik bo'g'inni tavsiflaydi.

Patogenetik klasterlarning shakllanishi: Korrelyatsiyalar tartibsiz emas, balki mantiqiy bo'lib, aniq patogenetik klasterlarni shakllantirdi:

Sitoliz va gemoliz klasteri: LDG, ALT va AST o'rtasidagi kuchli ijobiy bog'liqlik.

Buyrak shikastlanishi klasteri: Kreatinin va proteinuriya o'rtasidagi kuchli ijobiy bog'liqlik.

"Trombotik bo'ron" klasteri: D-dimer va antifosfolipid antitanachalar o'rtasidagi kuchli ijobiy bog'liqlik.

Teskari korrelyatsiya: Organlar shikastlanishi markerlari (LDG, kreatinin) va trombotsitlar darajasi o'rtasida kuchli teskari korrelyatsiya aniqlandi. Bu trombotsitopeniya iste'mol mexanizmini yaqqol namoyon etadi: tizimli shikastlanish qanchalik og'ir bo'lsa, trombotsitlar darajasi shunchalik past bo'ladi.

Multikollinearlik deb nomlanuvchi bu hodisa, ularni bir vaqtning o'zida bitta regressiya modeliga kiritishni statistik jihatdan noto'g'ri deb topildi. Ushbu muammoni hal qilish va barcha markerlardagi ma'lumotni saqlab qolish uchun biz tomonidan beshta asosiy ko'rsatkichning standartlashtirilgan qiymatlarini birlashtiruvchi Integral Indeksi (TMSI) ishlab chiqildi va hisoblandi.

Trombotik mikroangiopatiya (TMA) rivojlanish xavfi bo'lgan homiladorlarni olib borishda geterogenligi va uning ko'plab erta belgilarining nospetsifikligi tufayli bir necha bor murakkablashadi. Juhon amaliyotida prognozlashga oid mavjud yondashuvlar bir qator jiddiy cheklov larga ega: tor yo'nalganlik, multikollinearlik muammosi, kasallikning kompleks tabiatini e'tiborsiz qoldirish. Bu "diagnostik noaniqlik" shifokorning olib borish taktikasi to'g'risidagi qarorni ko'pincha intuitiv va kechikib, klinik manzara aniq va bemorning ahvoli kritik bo'lganda qabul qilishiga olib keladi. Ushbu cheklovlarini bartaraf etish uchun biz TMA Og'irlik Integral Indeksi (TMSI) ni ishlab chiqdik va validatsiyadan o'tkazdik. Uning maqsadi - shifokorning murakkab fikrlash jarayonini rasmiylashtirish va uni obyektiv, aniq va takrorlanuvchan vositaga aylantirishdir. TMSI eng muhim prediktorlarni yagona sonli ko'rsatkichga matematik tarzda birlashtiradi, multikollinearlik muammosini hal qiladi va patologik jarayonning og'irligini yaxlit baholash imkonini beradi. Ushbu vazifalarni hal qilish uchun biz o'zgaruvchan murakkablik va turli maqsadlarga ega bo'lgan uchta variantdagi TMA Og'irlik Integral Indeksini ishlab chiqdik va validatsiyadan o'tkazdik: TMSI-4 (Asosiy skrining) va TMSI-10 (Kompleks differensial-diagnostik). Bunday yondashuv turli

turdagi ma'lumotlarga asoslangan modellarning prognostik qimmatini taqqoslash va har bir klinik vazifa uchun optimal prediktorlar to'plamini aniqlash imkonini berdi.

Asosiy skrining indeksi TMSI-4: Indeks og'ir akusherlik patologiyasi mavjudligini tez va iqtisodiy jihatdan samarali baholash uchun mo'ljallangan. U TMA patogenezining to'rtta fundamental bo'g'inini aks ettirish uchun maqsadli ravishda tanlangan 4 ta asosiy laborator ko'rsatkichga asoslanadi: Trombotsitlar (PLT), Gomotsistein (Homocysteine), AFA (antifosfolipid antitanachalar).

Ushbu indeks og'ir TMA shakllarini (OPE, HELLP, KAFS) fiziologik homiladorlikdan ajratish uchun ideal qobiliyatni ko'rsatdi, bu esa uni jiddiy patologik jarayon mavjudligini tasdiqlash uchun samarali vosita qiladi. TMSI-4 ni hisoblash iqtisodiy jihatdan samaralidir, chunki u cheklangan miqdordagi nisbatan mavjud bo'lgan tekshiruvlarni o'z ichiga oladi. Uni qo'llash barcha xavf guruhiga qimmat genetik testlarni asossiz tayinlashdan qochish va resurslarni allaqachon aniqlangan o'zgarishlari bo'lgan bemorlarga qaratish imkonini beradi.

Kompleks differensial-diagnostik indeks TMSI-10 Indeks chuqurlashtirilgan baholash vositasi bo'lib, allaqachon aniqlangan og'ir patologiyasi bo'lgan bemorlarda murakkab differensial-diagnostik vazifalarni hal qilish uchun mo'ljallangan. Uning tarkibi patogenezning barcha ma'lum darajalarini - genetik moyillikdan tortib joriy organ buzilishlarigacha maksimal darajada qamrab olish maqsadida aniqlangan. U TMSI-10 ning barcha laborator-instrumental ko'rsatkichlarini, shuningdek, 3 ta asosiy anamnestik va genetik prediktorni o'z ichiga oladi: Anamnezi (Anamnesis_), Leyden mutatsiyasi tashuvchiligi (F5_Leiden_carrier), MTHFR C677T, PAI-1 mutant alleli tashuvchiligi. Tadqiqot natijalari ko'rsatganidek, aynan shu kompleks indeks, anamnez va genetikani hisobga oluvchi, klinik jihatdan o'xshash, ammo patogenetik jihatdan turli xil TMA shakllarini differensiatsiya qilish uchun yuqori aniqlikka egalik qildi.

ROC-tahlili natijalari shuni ko'rsatdiki, indeksning barcha uch varianti (TMSI-4, TMSI-10 yakuniy) nazorat guruhi bilan barcha taqqoslashlar uchun ROC-egri chiziq ostidagi maydon (AUC) 1,000 ga teng bo'lgan ($p<0,001$) ideal diagnostik aniqlikni namoyon etdi.

Bu shundan dalolat beradiki, hatto TMSI-4 indeksiga kiritilgan to'rtta markerdan iborat bazaviy to'plam ham TMA bilan bog'liq og'ir akusherlik patologiyasini skrining qilish va ob'ektiv tasdiqlash uchun o'ta yuqori sezgir va yuqori spetsifik vosita hisoblanadi.

Tadqiqot namunasida TMSI-4 indeksi qiyamatlarining taqsimlanishini tahlil qilish asosida optimal chegaraviy qiyamat (cut-off value) 0,0 aniqlandi, bu TMA-ni me'yordan 100% sezgirlik va 100% spetsifiklik bilan ajratish imkonini beradi va bu birlamchi tashxislash uchun ulkan amaliy ahamiyatga ega.

Klinik jihatdan o'xshash, ammo patogenetik jihatdan farq qiluvchi TMA shakllari o'rtasidagi differensial diagnostika vazifasini hal qilish ancha murakkabroq muammo hisoblanadi va uni hal qilish uchun yuqori prognostik quvvatga ega vosita talab etiladi.

ROC-egri chiziqlari grafiklari yaqqol ko'rsatib turganidek, faqat laborator-instrumental ma'lumotlarga asoslangan bazaviy TMSI-4 indekslari HELLP-sindromi va og'ir PEni ishonchli farqlash uchun yetarli prognostik kuchga ega emas (mos ravishda AUC 0.554 va 0.562). Bu fundamental ahamiyatga ega bo'lgan negativ natija bo'lib, u standart testlar asosida bu holatlarni ishonchli differensiatsiya qilishning iloji yo'qligini isbotlaydi. Differensial diagnostikadagi yutuqqa faqat

qo'shimcha ravishda anamnestik va genetik omillarni ham birlashtirgan kompleks TMSI-10_yakuniy indeksidan foydalanilgandagina erishildi.

Ushbu indeks HELLPni OPEdan differensiatsiya qilish uchun juda yaxshi prognostik aniqlikni (AUC=0.806, 95% IO 0.748-0.863, p<0.001) va KAFSn PE dan differensiatsiya qilish uchun a'lo darajadagi aniqlikni (AUC=0.862, 95% IO 0.790-0.934, p<0.001) namoyon etdi. Bu natijalar ishonchli tarzda shuni isbotlaydiki, TMAning klinik jihatdan o'xhash shakllarini farqlash uchun nafaqat joriy laborator kartinani, balki bemorning fon moyilligini ham hisobga olish zarur, TMSI-10 indeksi esa aynan shunday imkoniyatni beradi.

Shu bilan birga, ikkita eng og'ir shakl — KAFS va HELLP o'rtasidagi differensial diagnostika hatto kompleks indeks uchun ham murakkab vazifa bo'lib qoldi (AUC=0.632), bu ularning tizimli zararlanish og'irligi jihatidan chuqur patogenetik o'xhashligidan dalolat beradi va ularni farqlash uchun maxsus (spetsifik) markerlarni jalg qilishni talab etadi.

Ko'rsatilganidek, TMSI-4 indeksi og'ir TMA shakllarini fiziologik homiladorlikdan ajratish uchun ideal qobiliyatga ega (AUC=1.0). TMSI-4 indeksi qiymatlarining taqsimlanish tahlili shuni ko'rsatdiki, nazorat guruhidagi maksimal indeks qiymati -1,45 ni tashkil etgan bo'lsa, TMA guruhlaridagi minimal qiymat +0,21 ni tashkil etdi.

Qiymatlar diapazonlarining umuman kesishmasligi oddiy va yuqori aniqlikdagi diagnostik qoidani shakllantirishga imkon beradi.

Diagnostik qoida:

TMSI-4 qiymati < 0.0 bo'lsa: yuqori ehtimollik bilan (spetsifiklik 100%) hozirgi vaqtda og'ir TMA shakli yo'qligidan dalolat beradi. Bemor protokolga muvofiq xavf guruhida kuzatuvni davom ettirishi mumkin.

TMSI-4 qiymati ≥ 0.0 bo'lsa: Bu "xavotir signali" ("qizil bayroqcha") bo'lib, yuqori ehtimollik bilan (sezgirlik 100%) yaqin vaqt ichida og'ir TMA mavjudligi yoki rivojlanishining yuqori xavfiga ishora qiladi. Bunday bemor chuqurlashtirilgan tekshiruv o'tkazish, TMSI-10 kompleks indeksini hisoblash va olib borish taktikasini hal qilish uchun zudlik bilan III darajali statsionarga yotqizilishi kerak.

Prognostik qimmat bo'yicha asosiy xulosalar:

Norma bilan solishtirganda yuqori diagnostik aniqlik: Laborator va instrumental markerlarning har qanday kombinatsiyasi, indeksga birlashtirilgan, og'ir akusherlik patologiyasini (OPE, HELLP, KAFS) fiziologik homiladorlikdan deyarli xatosiz ajratish imkonini beradi (barcha indekslar uchun $AUC \approx 1.0$).

Differensial diagnostika uchun standart markerlarning yetishmasligi: Faqat laboratoriya va instrumental ma'lumotlarga asoslangan asosiy indekslar (TMSI-4) turli TMA shakllarini bir-biridan ajratish uchun yetarli prognostik kuchga ega emas.

Kompleks yondashuvning hal qiluvchi roli: Faqatgina anamnestik va genetik omillarni o'z ichiga olgan TMSI-10, murakkab differensial-diagnostik vazifalarni hal qilish uchun statistik ahamiyatli va yuqori prognostik qimmatni namoyish etadi (HELLP vs OPE uchun $AUC=0.865$, KAFS vs OPE uchun 0.935 va KAFS vs HELLP uchun 0.711).

TMSI-4 Indeksining chegara qiymatidan yuqori bo'lishi yoki TMA ning klinik-laborator belgilarining (progressiv trombotsitopeniya, D-dimer va

gomosisteinni oshishi, AFA-antifosfolipid antitanachalar) paydo bo'lishi bemorni reanimatsiya va intensiv terapiya bo'limi mavjud bo'lgan III darajali akusherlik statsionariga zudlik bilan gospitalizatsiya qilish uchun ko'rsatma hisoblanadi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti homilador ayollarda trombotik mikroangiopatiyaning (TMA) kompleks o'rganishga, ularni erta tashxislash, prognozni baholash va tanlangan genetik markerlarni hisobga olgan holda akusherlik asoratlarining patogenetik asoslangan profilaktikasiga integratsiyalashgan yondashuvni ishlab chiqish va ilmiy asoslashga bag'ishlandi. Oldingi bobda qo'yilgan vazifalarni bajarish jarayonida olingan original ma'lumotlar taqdim etildi. Ushbu bobda ushbu natijalarning zamonaviy ilmiy tasavvurlar va jahon adabiyoti ma'lumotlari kontekstida batafsil muhokamasi o'tkaziladi. Asosiy e'tibor tekshirilayotgan kogortadagi TMA ning klinik-epidemiologik xususiyatlarini tahlil qilish, ushbu holatlarning rivojlanishi va kechishini modulyatsiya qilishda aniqlangan genetik, klinik-laborator va morfologik prediktorlarning rolini talqin qilish, shuningdek, taklif etilgan kompleks skrining algoritmi, xavfni stratifikatsiyalash va ishlab chiqilgan profilaktika protokollarining samaradorligini baholashga qaratiladi. Olingan ma'lumotlarni tanqidiy tahlil qilish nafaqat ularning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyatini baholashga, balki tadqiqotning mumkin bo'lgan cheklovlarini aniqlashga va akusherlik va gematologiyaning ushbu murakkab va dolzarb sohasida keyingi ilmiy izlanishlar uchun istiqbollarni belgilashga imkon beradi va quyidagilarni amaliyotga tadbig qilishni tavsiya etedi:

Klinik amaliyotga yengil o'girlikda kechuvchi preeklamsiya bilan kasallangan homilador holati og'irligini dinamik baholash uchun yangi vosita — Integrallashgan Trombotik Mikroangiopatiya Og'irlik Indeksini (TMSI) asosida algoritm joriy etildi (5-rasm.).

"Preeklampsiya" tashxisi qo'yilgan, oilaviy, somatik, akusherlik va ginekologik og'irlashgan anamneziga ega barcha bemorlarga shifoxonaga yotqizilganda va keyinchalik holat og'irligiga qarab TMSI indeksini hisoblash tavsiya etiladi. Indeks laborator ko'rsatkich: trombostsitlar, gomotsstein, D-dimer, ALT, LDG asosida, ularning standartlashtirilgan z-baholarini jamlash orqali hisoblanadi.

TMSI ning musbat yoki dinamikada o'sib boruvchi qiymati tizimli poliorgan shikastlanishning boshlanganidan dalolat beruvchi obyektiv xavotirli signal hisoblanadi va HELLP-sindromining klassik yaqqol manzarasi mavjud bo'lmaganda ham kuzatuv va terapiyani zudlik bilan kuchaytirish uchun asos bo'lishi kerak. Laboratoriya axborot tizimlariga ushbu indeksni avtomatik hisoblovchi kalkulyatorni ishlab chiqish va joriy etish lozim.

Riskni obyektiv stratifikatsiyalash va olib borish taktikasini tanlash uchun ishlab chiqilgan ko'p faktorli bashorat algoritmidan foydalanish.

Preeklampsiyasi bo'lgan har bir bemor uchun TMSI qiymati va oilaviy anamnez ma'lumotlariga asoslangan bashorat modelidan foydalanib, trombotik mikroangiopatiya rivojlanishining individual ehtimolini hisoblash tavsiya etiladi.

Olingan ehtimollikka qarab, bemorlar uchta risk guruhiga stratifikatsiya qilinishi kerak:

Past risk (ehtimollik < 5%): PE bo‘yicha standart protokollarga muvofiq olib borish.


O‘rta risk (ehtimollik 5-20%): Kuchaytirilgan monitoring, jumladan, har kuni arterial bosim, diurezni nazorat qilish va 24 soatda TMSI ni hisoblash; gematolog maslahati.


Yuqori risk (ehtimollik > 20%): Ushbu toifadagi bemorlar maksimal darajada diqqat-e’tiborni talab qiladi. Intensiv terapiya bo‘limiga yoki intensiv kuzatuv palatasiga o‘tkazish, hayotiy muhim funksiyalarni kecha-kunduz monitoring qilish, har 12-24 soatda laborator nazorat (jumladan TMSI), muddatidan oldin tug‘ruqqa zudlik bilan tayyorgarlik ko‘rish ko‘rsatilgan.

Yuqori risk guruhidagi bemorlarga patogenetik profilaktik terapiya tayinlashda differensial yondashuvni qo‘llash.

Bashorat modeliga ko‘ra yuqori risk guruhiga kiritilgan bemorlarga, homiladorlikning 20-22 haftasidan boshlab (skriningda aniqlanganda) yoki zudlik bilan og‘ir PE bilan shifoxonaga yotqizilganda milliy protokollar asosida davo choralarrrini boshlash HELLP va KAFS sindromlarini oldini olish zarur.

5-rasm. Trombotik Mikroangiopatiya Og‘ irlik Indeksini (TMSI) asosida algoritmi.





XULOSALAR

